



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKA OLIY VA O'RTA TA'LIM
VAZIRLIGI**



**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI
INSTITUTI**

"TVF VA IT " kafedrasi

**Oliy ta'limning
5140900 "Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash" yo'nalishi
uchun**

**«MUTAXASSISLIKKA KIRISH»
fanidan**

**MA'RUZA MATNLARI
TO'PLAMI**

BUXORO - 2005

ANNOTATSIYA

«Mutaxassislikka kirish» fani V 5140900 – «Transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash» yo`nalishidagi bakalavr talabalariga o`tiladi.

Mazkur ma`ruzalar matni namunaviy va «TVF va IT» kafedrasida tuzilgan ishchi dasturlar asosida yozilgan.

Ma`ruzalar matnida «Transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash» yo`nalishiga oid tushunchalar bayon etilgan.

Tuzuvchilar:

t.f.n. Negmatov V.A.

katta o`q. Bayozov R.R.

Taqrizchilar:

Bux OO va YESTI «TVF va IT»
kafedraasi dotsenti **Musaev K.Yu.**

Bux DU «QXM» kafedraasi mudiri
dots. Hasanov I.S.

Ma`ruzalar matni «TVF va IT» kafedrasining №\_\_\_\_ yig`ili-
shida_____2005 yil tasdiqlangan.

Ma`ruzalar matni Bux OO va YESTI uslubiy kengashida «____» _____
2005 yil №__ majlisida tasdiqlangan.

M U N D A R I J A.

Mavzu - 1. Kirish. 5140900 “transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash” yo`nalishi bo'yicha umumiy ma`lumot.....	4
Mavzu - 2. Mutaxassislik bo'yicha o'rganiladigan fanlar haqida tushuncha.....	14
Mavzu - 3. Umumkasbiy fanlar bloki haqida umumiy tushuncha.....	19
Mavzu - 4. Ixtisoslik fanlar bloki haqida umumiy tushuncha.....	23
Mavzu - 5. Bakalavr pedagoglarni o'qitish jarayonida bilimlarini baholash tizimi.....	28
Mavzu - 6. Baholash mezonlari bo'yicha umumiy ma`lumot.....	32
Mavzu - 7. Transport vositalarini texnik ishlatish bo'yicha asosiy tushunchalar.....	38
Mavzu - 8. Transport vositalarini ta`mirlash bo'yicha asosiy tushunchalar.....	44
Mavzu - 9. Transport vositalarida yuk va yo'lovchi tashish to'g'risida asosiy tushunchalar va avtotransport korxonasining texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari.....	52
«MUTAXASSISLIKKA KIRISH» fani bo'yicha <i>b a h o l a s h</i> <i>m e z o n i</i>	59
Mustaqil ishlarni bajarishga oid topshiriqlar.....	60

**Mavzu - 1. KIRISH. 5140900 “TRANSPORT VOSITALARINI
ISHLATISH VA TA`MIRLASH” YO`NALISHI BO`YICHA UMUMIY
MA`LUMOT. (2-soat)**

Reja:

- 1.1.** “Mutaxassislikka kirish” fanining maqsadi va vazifasi.
- 1.2.** Bakalavr – pedagog, mutaxassislik va akademik daraja tushunchalari.
- 1.3.** Malakali kadrlar tayyorlash.
- 1.4.** 5140900 – “Transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash” yo`nalishi bo`yicha bakalavrlarning faoliyat sohasi.

Adabiyotlar:

1. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent. 1998 y.
2. "Oliy ta`lim", Me`yoriy hujjatlar to`plami. II qism. Toshkent, "Sharq". 2001 y.
3. G.V. Kramarenko, I.V. Barashkov «Avtomobillarga texnikaviy xizmat ko`rsatish» T.:O'zbekiston, 1998 y.

1.1. “Mutaxassislikka kirish” fanining maqsadi va vazifasi.

“Mutaxassislikka kirish” kursi “Transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash” yo`nalishidagi bakalavrlar uchun gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokiga kiradi. **Fanni o`qitishdan maqsad:** - mutaxassislikka kirish bo`yicha 5140900 “Transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash” yo`nalishida ta`lim olayotgan talabalarni o`z mutaxassisliklarining asosiy mazmuni, xizmat vazifasi va O`zbekiston xalq xo`jaligidagi amaliy ishlatilishi bilan tanishtirish.

Avtotransport korxonalarida yoki kasb-hunar kollejlariida ishlaydigan bakalavr – pedagoglar o`z mutaxassisliklari bo`yicha o`rganishlari kerak bo`lgan fanlarni chuqurroq o`zlashtirishlari lozim. Negaki, hozirda qanchadan – qancha kasb-hunar kollejlari barpo qilinmoqda, shu bois yosh avlodni kasb-hunar egallashga o`rgatish bakalavr – pedagoglarni malakasiga bog`liqdir.

Mutaxassislikka kirish kursida talabalar 5140900 “Transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash” yo`nalishi haqida to`liq tasavvurga ega bo`ladilar. Mazkur

fanda talabalar mutaxassislik fanlar tasnifi va ularning qisqacha mazmuni, shu bilan birga fanlararo o'zaro bog'liqliklarni tahlil etish hamda malakali mutaxassis bo'lib etishish muammolarini o'rganadilar. Talabalar mutaxassislikka kirish, fanining asosini tashkil qiluvchi mavzular bo'yicha quyidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishlari zarur: "Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash" yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning faoliyat sohasi, umumkasbiy va ixtisoslik fanlar tasnifi. Baholash tizimlari va bakalavr – pedagoglarni o'qitish jarayonida, reyting nazorat tizimidan foydalanish hamda baholash mezonlari haqida asosiy ta'rif va tushunchalarga.

Mutaxassislikka kirish fanining vazifasi:

- talabalarda o'z mutaxassisliklariga oid tushunchalarni shakllantirish;
- mutaxassislik fanlarining o'zaro bog'liqligini o'rganish va tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va ekspluatatsiya jarayonlarini o'rganish;
- "Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash" yo'nalishidagi bakalavr pedagoglar faoliyat sohasini o'rganish;

1.2. Bakalavr – pedagog, mutaxassislik va akademik daraja tushunchalari.

O'rta maxsus, kasb–hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb–hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb–hunar kollejlari egallangan kasb–hunar bo'yicha ishlash xuquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb–hunar ta'limi beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb–hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb–hunar kolleji o'quvchilarning kasb–hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir nechta ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb–hunar o'quv yurtidir.

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb–hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy – pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy–tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy – pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

1.3. Malakali kadrlar tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmokda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq – atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb – hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy – siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb – hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy – siyosiy, huquqiy, psixologik – pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Mazkur dasturning **maqsadi** – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va satlardan to'la xalos etish, rivojlangan

demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

“Ta`lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta`lim tizimini isloh qilish va davlat va nodavlat ta`lim muassasalari hamda ta`lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muxitini shakllantirish negizida ta`lim tizimini yagona o'quv – ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta`minlash;

ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

kadrlash tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta`minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

kadrlash tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan , madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

ta`lim oluvchilarni ma`naviy – axloqiy tarbiyalashning va ma`rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

ta`lim va kadrlar tayyorlash, ta`lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

yangi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarda ta`limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta`minlovchi normativ, moddiy – texnika va axborot bazasini yaratish;

ta`lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta`minlash tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

uzluksiz ta`lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

kadrlar tayyorlash sohasiga o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma – bosqich ro'yobga chiqariladi.

Birinchi bosqich (1997 – 2001 yillar) - mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy – uslubiy, moliyaviy – moddiy shart – sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

“Ta`lim to'g'risida”gi Qonunga muvofiq ta`lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;

pedagog va ilmiy – pedagog kadrlar tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

ta`lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlik darajasi, malakasi, madaniy va ma`naviy – axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan quyiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta`lim standartlarini yaratish va joriy etish;

o'rta maxsus, kasb – hunar ta`limi uchun zarur moddiy – texnika, o'quv – uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;

ta`lim va kadrlar tayyorlashga byudjetdan tashqari mablag'lar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat ta`lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta`lim muassasalarini rivojlantirishni ham nazarda tutgan holda ta`lim xizmati ko'rsatish sohasida raqobatga asoslangan muxitni vujudga keltirish;

ta`lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo'lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar tayyorlashda xalqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta'lim sohasiga chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha real chora – tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Ushbu bosqichda bolalarni olti – etti yoshdan maktabga qabul qilish ularning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o'quvchi o'rinlari zarur moddiy texnika shart – sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta'minlangan holda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich (2001 – 2005 yillar) – Milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatiga asoslangan muxit vujudga keltiriladi.

Ta'lim muassasalarining moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o'quv - tarbiya jarayoni yangi o'quv – uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi.

Milliy (elita) oliy ta'limning muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb – hunar ta'limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'zini – o'zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta'lim - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimini tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi;

ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslanuvchanligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan inson xuquqlari, ta'lim, bola xuquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jaxon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo'lib, uning rivojlanishi omillaridan biri hisoblanadi.

1.4. 5140900 – “Transport vositalarini ishlatish va ta`mirlash” yo`nalishi bo'yicha bakalavrlarning faoliyat sohasi.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligida avtotransportning vazifasi muhim bo'lganligi uchun, undan sifatli va samarali foydalanish tadbirlari ishlab chiqilmoqda. SHuni hisobga olib, xalq xo'jaligining rivojlantirishning kelgusi besh yillik dasturida avtotransportning modiy texnika ta`minotini mustahkamlash, yangi zamonaviy texnikani amalda keng joriy qilish, ilg'or texnologiya va avtomatik boshqarish usullaridan foydalanish ko'zda to'tilgan, shuningdek, umumiy tartibda foydalaniladigan transportda yuk tashishni 18-19% va yo'lovchi tashishni 14-16% ga oshirish mo'ljallangan.

Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ko'zda to'tilgannidek avtotransport sohasiga og'ir yuk ko'taruvchi va boshqa turdagi avtomobillarning kirib kelishi ATK quvvatini oshirish, ishlab chiqarish ish uslublarini takomillashtirish va ularni samarasini oshirishni taqozo qiladi.

Avtotransport harakat tarkibi ishni yaxshilash uchun TXK va T ishlari texnologiyasini va ularni tashkil etishni takomillashtirib, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish kerak. SHu tashkiliy texnikaviy tadbirlarni zamonaviy fan va texnika yutuqlari asosida tashkil etish avtomobillardan samarali foydalanishga olib keladi.

Shu munosabat bilan avtomobillarga TXK va T ishlarida diagnostikani tadbiq etib, avtomobillarning nosozligi, ishchanligi va ATK ni boshqarishga yaroqliligi puxta aniqlanishi va ATK ish faoliyatida ishlab chiqarishni markazlashgan hamda avtomatik boshqarish tarzi keng qo'llanilishi lozim. Avtomobillarning texnik holatini boshqarish jarayonini takomillashtirishda avtomobillarga tenikaviy xizmat ko'rsatish mutaxassisleri avtomobillarning texnik holati o'zgarishiga salbiy ta'sir etuvchi dalillarni, mustahkamlik nazariyasi, TXK hamda jami texnologik jihozlar turini yaxshi bilishlari kerak. Bundan tashqari, ular ATK ni loyihalash va ishlab chiqarishni qayta jihozlash bo'yicha yaxshi tushunchaga ega bo'lishlari talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqil deb e'lon qilingandan so'ng, respublikada avtomobil ishlab chiqarish sanoatini barpo etishga avtomobil transportidan oqilona va unumli foydalanishga hamda shu soxa bo'yicha milliy kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berila boshlandi. Avtotransport ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasini rivojlantirish uchun shu sohadagi etuk mutaxassislarni tayyorlash zarur edi.

Buning uchun, dastlab, xalq ta'limini isloh qilishni va bo'lajak mutaxassislarga jahon talablari darajasida bilim berishni davr taqozo etadi. Bunday yuksak vazifalarni amalga oshirishda respublikamizning xalq ta'limi sohasi moddiy texnika bazasi imkoniyatlari hozircha etarli emas, o'quv jarayonlarini takomillashtirish va bo'lajak mutaxassislarga bilim berish darajasini yuksaltirish maqsadga muvofiqdir.

“Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash” yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning faoliyat sohasi bakalavrlik darajasini olganlaridan so'ng avtotransport korxonalarida yoki kasb-hunar kollejlarda o'z mutaxassisliklari bo'yicha mehnat faoliyatlarini olib borishlari mumkin.

Tayanch iboralar:

Akademik litsey, kasb-hunar kolleji, bakalavriyat, magistratura, malakali kadrlar tayyorlash, shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish, bakalavrlarning faoliyat sohasi.

Nazorat savollari:

1. Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifasini tushuntiring.
2. Bakalavr – pedagog, mutaxassislik va akademik daraja tushunchalarini izohlang.
3. Malakali kadrlar tayyorlash dasturining maqsadi nima?
4. «Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning faoliyat sohasi haqida tushuncha bering.

Mavzu - 2. MUTAXASSISLIK BO'YICHA O'RGANILADIGAN FANLAR HAQIDA TUSHUNCHA. (2-soat)

Reja:

- 2.1.** Gumanitar va ijtimoiy – iqtisodiy fanlar haqida tushuncha.
- 2.2.** Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar haqida tushuncha.
- 2.3.** Fanlararo o'zaro bog'liqlik hamda mutaxassislikka kirish fanining o'qitilish ahamiyati.

Adabiyotlar:

1. O'zbekistonda 2010 yilgacha bo'lgan davrda Oliy texnik ta'limni takomillashtirish. "Ma'rifat" gazetasi, 2004 yil, 18-fevral.
2. "Oliy ta'lim", Me'yoriy hujjatlar to'plami. I qism. Toshkent, "Sharq". 2001 y.

2.1. Gumanitar va ijtimoiy – iqtisodiy fanlar haqida tushuncha.

Oliy texnika ta'limini fundamentallashtirish. Texnik ta'limning yangicha paradigmasi, nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni, balki keng ma'lumotli ijodiy shaxslarni shakllantirishni nazarda tutadi. Buni esa, o'quv jarayonini fundamentallashtirishni kuchaytirmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Birinchidan, so'nggi yillarda fundamental fanlar muxandislik va ishlab chiqarishda doimiy ta'sir etuvchi va samarador kuchga aylandi.

Ikkinchidan, texnik ta'limni fundamentallashtirish tanqidiy fikrlash va ijodiy faoliyatni shakllantirishga samarali yordam beradi.

Uchinchidan, fundamental fanlar tabiiy-ilmiy, kasbiy va gumanitar bilimlarning samarali integratsiyasini ta'minlaydi.

Ta'limni fundamentallashtirish oliy texnik ma'lumotli kadrlarga jonli va jonsiz tabiatdagi jarayonlar va xodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar, bilishning ilmiy usullari va tizimli yondashuv asosida bilimlarni yaratish, ilgari surish hamda ommalashtirish uchun zarurdir. Chuqur ilmga asoslangan va axborot texnologiyalarni, biotexnologiyalarni, mikrodarajadagi texnologiyalar

(nanotexnologiyalar, oppotexnologiyalar, mikrotexnologiyalar va x.k), berilgan harakteristika va xossalariaga ega yangi materiallar (shu jumladan, kompozit asosidagi), robot texnikasi va robot texnikasi tizimlarini ishlab chiqish, o'zlashtirish va samarali qo'llash uchun mutaxassisga jiddiy fundamental tayyorgarlik zarur.

Texnika ta'limini insonparvarlashtirish insonning eng oliy ijtimoiy qadriyat sifatida qaror topishiga, uning qobiliyatlari namoyon bo'lishi va turli ta'limga bo'lgan ehtiyojining qondirilishiga, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga, insonning atrof-muxit bilan munosabatlari uyg'unlashuvini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Texnik ta'limni gumanitarlashtirish ta'lim oluvchilarda olamning yaxlit manzarasi, yuqori ma'naviyat, madaniyat va samoviy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Zamonaviy mutaxassis uning ma'naviyati va madaniyatini belgilovchi keng gumanitar bilimlarni egallashi lozim.

Oliy ta'limni gumanitarlashtirish etik (axloqiy), estetik, ergonomik, ekologik, iqtisodiy va huquqiy tarbiya kabilar bilan uning tarkibini to'ldirishni taqozo etadi.

«Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishidagi talabalar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokida, ya'ni birinchi blokda quyidagi fanlarni o'rganadilar:

1. O'zbekiston tarixi
2. Huquqshunoslik. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
3. Ma'naviyat asoslari. Dinshunoslik.
4. Falsafa (etika, estetika va mantiq)
5. Madaniyatshunoslik
6. Sotsiologiya
7. Iqtisodiyot nazariyasi
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar
9. Siyosatshunoslik. Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti
10. O'zbek (rus) tili
11. Chet tili

12. Mustaqillik darslari
13. Jismoniy tarbiya va sport
14. Mutaxassislikka kirish.

2.2. Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar haqida tushuncha.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim, jumladan, oliy texnika ta'lim tizimini takomillashtirish va islox qilish bo'yicha kontseptual hujjatlar 1997 yilda Oliy majlis tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi va" Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi Qonunlari hisoblanadi. Ular yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni qo'ya olish va ularni echishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan.

SHu sababli talaba o'z yo'nalishining malakali mutaxassisi bo'lib etishishi uchun o'quv rejada ko'rsatilgan fan bloklarini yaxshi o'zlashtirishlari lozim. Fan bloklari orasida tabiiy-ilmiy fanlar bloki, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'rganishda tayanch hisoblanadi.

«Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishidagi talabalarga matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokida, ya'ni ikkinchi blokda quyidagi fanlar olib boriladi:

1. Oliy matematika
2. Informatika, informatsion texnologiyalar
3. Fizika
4. Kimyo
5. Nazariy mexanika
6. ekalogiya.

Yuqorida keltirilgan fanlarini har bir talaba puxta egallashi lozim. SHundagina umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni o'rganishda talabalarda qiyinchiliklar tug'ilmaydi. Masalan, oliy matematika fanini o'rganmay turib, fizika yoki kimyo fanlarini o'rganish juda qiyin kechadi.

2.3. Fanlararo o'zaro bog'liqlik hamda mutaxassislikka kirish fanining o'qitilish ahamiyati.

Bakalavrlarning kasbiy yo'naltirilgan mutaxassis bo'lib etishishi tez moslanuvchan bozor mexanizmi harakatiga muvofiq holda ro'y berishi zarur, bu bir tomondan ixtisoslashuvning muayyan turlari va darajalari xilma-xilligiga olib kelsa, ikkinchi tomondan esa, ularni u yoki bu tashkiliy shakllarda yuzaga chiqaradi. Bunda, bakalavrning oliy o'quv yurtida mukammal nazariy tayyorgarlik olishiga tayanishidan kelib chiqish kerak.

«Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishi bo'yicha etuk mutaxassis bo'lib etishish uchun, talabada matematik va tabiiy – ilmiy fanlar ya'ni, oliy matematika, informatika fizika, kimyo, nazariy mexanika hamda ekalogiya fanlari bo'yicha to'liq bilim, ko'nikma va malakalar shakllangan bo'lishi kerak.

Chunki, mazkur fanlar ixtisoslik fanlarini o'rganishda tayanch hisoblanadi.

Masalan, bunga bir qancha misollar keltirish mumkin: «Ichki yonuv dvigatellari» fanining asosiy negizini oliy matematika, issiqlik texnikasi, fizika, kimyo, nazariy mexanika, ekalogiya, transport vositalari tuzilishi va nazariyasi hamda transport vositalarida ishlatiladigan materiallar kabi fanlar tashkil etadi. Ichki yonuv dvigatellarida kechadigan jaryonlarni kuzatishda va dvigatellarni issiqlik balanslarini hisoblashda hamda shunga o'xshash bir qancha turli ko'rsatkichlarni aniqlashda muhim rol' o'ynaydi.

Umuman olganda, jamiyatdagi barcha narsalar bir-biri bilan bog'liq bo'lganidek, o'quv rejada keltirilgan fanlar ham bir-biri bilan shunchalik o'zaro bog'liqdir. Biroq, bir fanni o'rganmay turib, ikkinchi bir fanni o'rganish ancha mushkul. Shu sababli o'quv reja bo'yicha keltirilgan ketma-ketlik O'zbekiston Respulikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan.

Tayanch iboralar:

O'quv jarayonini fundamentallashtirish, texnik ta'limni gumanitarlashtirish, gumanitar va ijtimoiy – iqtisodiy fanlar bloki, malakali mutaxassis, matematik va tabiiy – ilmiy fanlar bloki, fanlararo bog'liqlik.

Nazorat savollari:

1. Oliy texnika ta'limini fundamentallashtirishdan maqsad nima?
2. Texnik ta'limni insonparvarlashtirish nimalarga qaratilgan bo'lishi kerak?
3. Gumanitar fanlar tasnifini keltiring va qisqacha izohlang.
4. Matematik va tabiiy – ilmiy fanlarni ixtisoslik fanlar blokini o'rganishda tutgan o'rni.
5. Fanlararo bog'liqlikni izohlang.

Mavzu - 3. UMUMKASBIY FANLAR BLOKI HAQIDA UMUMIY

TUSHUNCHA. (2-soat)

Reja:

3.1. Umumkasbiy fanlar tasnifi.

3.2. Jamiyatning rivojlanishida oliy texnik ta'limning tutgan o'rni.

3.3. Umumkasbiy fanlar haqida talabalarga tushuncha berish.

Adabiyotlar:

1. O'zbekistonda 2010 yilgacha bo'lgan davrda Oliy texnik ta'limni takomillashtirish. "Ma'rifat" gazetasi, 2004 yil, 18-fevral.

2. Ishchi o'quv reja, ta'lim yo'nalishi: 5140900-Kasb ta'lim («Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash»).

3.1. Umumkasbiy fanlar tasnifi.

«Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishidagi talabalarga umumkasbiy fanlar blokida, ya'ni uchinchi blokda quyidagi fanlar olib boriladi:

1. Psixologiya
2. Yosh davrlar fizologiyasi va gigenasi
3. Pedagogika
4. Yangi pedagogik texnologiya
5. Kasbiy ta'lim uslubiyoti
6. Chizma geometriya va muxandislik grafikasi
7. Gidravlika va gidrohavoli uzatma
8. elektrotexnika, elektronika asoslari
9. Metrologiya va standartlash va o'zaroalmashtirish
10. Hayot faoliyati xavfsizligi
11. Materiallar qarshiligi
12. Avtomobil transporti iqtisodiyoti
13. Mashina va mexanizimlar nazariyasi
14. Mashina qismlari

15. Materialshunoslik va konstruktsion materiallar texnologiyasi
16. Issiqlik texnikasi
17. Texnik tizimlarni boshqarish
18. Kasb mahorati
19. Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari
20. Transport vositalarini tuzilishi va nazariyasi
21. Ichki yonuv dvigatellari
22. Transport vositalarida ishlatiladigan materiallar
23. Yo'l harakati qoidalari va avtomobillarni boshqarish

3.2. Jamiyatning rivojlanishida oliy texnik ta'limning tutgan o'rni.

Jahon fani texnikasi va texnologiyasi juda tez rivojlanmoqda. Ko'p mamlakatlarda XXI asrning birinchi choragida jahon bozori uchun raqobatbardosh mahsulot etkazish va xizmat ko'rsatish yo'lini belgilash uchun oltinchi texnologik tuzumni ishlab chiqmoqdalar. Texnik kadrlar yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini yaratadilar va iqtisodiyotning barcha tarmoqlari rivojlanishini belgilaydilar. O'zbekiston ushbu jarayonga qo'shilishi uchun barcha imkoniyatlarga ega. Respublikaning ilmiy salohiyatini xom ashyo va inson resurslari bilan birlashtirish jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallash imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistonda ta'lim sohasida, jumladan, oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" vazifalari bosqichma - bosqich amalga oshirilishining natijasi bo'lib, mamlakatda bir necha o'n yillar davomida to'plangan siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy tizimni tubdan o'zgartirish va iqtisodiyotning yangi asosini yaratish sharoitida amalga oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyoti oliy ta'lim, jumladan texnika ta'limi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda, chunki mamlakatni zamonaviy tsivilizatsiyaning ilg'or marralariga etkazish vazifasini yuqori sifatli texnika kadrlarni tayyorlash tizimini yaratmasdan bajarib bo'lmaydi. Jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallash va yuksak

turmush darajasiga erishishda takomillashgan sanoat ishlab chiqarishning o'rnini muhim ahamiyatga egadir.

XXI asrda, ya'ni informatsion texnologiyalar, biotexnologiyalar, kibernetika va kvant texnikasi asrida - tsivilizatsiya tarakkiyotining ustuvor yo'nalishlarini quyidagilar tashkil etadi:

- fanlararo fundamental va amaliy tadqiqotlar;
- "inson - yashash muxiti" tizimini rivojlantirishda uzoqqa mo'ljallangan bashoratlash;
- gen injeneriyasi asosidagi biotibbiyot va biotexnologiyalar (geobiotexnologiya, ekobiotexnologiya, to'qimalarni o'stirish, injenerlik tibbiyoti va x.k);
- chuqur ilmga asoslangan va aviakosmik texnologiyalar;
- mikroelektronikaning rivojlanishi bilan bog'liq kritik texnologiyalar (nano, bio, opto va akusto elektronika, sun'iy intellekt tizimi va avtomatlashtirilgan tarjima);
- amaliy yo'naltirilgan eng yangi axborot texnologiyalari va tizimlari, umumtizimli va tadbqiqiy dasturlash;
- noan'anaviy energoresurslar, resurs va energiya tejash texnologiyalari;
- tabiiy resurslar va texnik materiallarni qayta ishlashning yangi texnologiyalari;
- belgilangan xususiyatli mutloq yangi materiallar (o'ta mustahkamlik issiqbardoshlilik eyilishiga bardoshlilik xotiraga ega bo'lgan va boshqa);
- mashina va ishlab chiqarish majmualari tizimining yangi avlodi (moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari, robotlar va robototexnik majmualar va boshqalar);
- transport va aloqa vositalarining yangi avlodi (yuqori tezlikga ega, energiya tejoychi va ekologik toza xususiyatli transport, global telekommunikatsiya va ekomonitoring global tizimlari).

XXI asr tsivilizatsiyasini yanada taraqqiy etirishda yuqoridagi ustuvor jihatlarini amalga oshirish uchun barcha iqtisodiyot sohalarini tezkor rivojlantirish

imkonini beradigan texnik kadrlarning yangi avlodini keng ko'llamda tayyorlash zarur.

3.3. Umumkasbiy fanlar haqida talabalarga tushuncha berish.

Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari kursi transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash yo'nalishi bakalavrlari uchun umumkasbiy fanlar blokiga kiradi.

Fani o'qitishdan maqsad – ishonchlilik nazariyasi va diagnostika bo'yicha chuqur bilim olish va uning asosida transport vositalari ekspluatatsiyasi bo'yicha ilmiy tarzda asoslangan uslub va me'yorlarni ishlab chiqish va ularni amalda samarali qo'llash uchundir.

Hozirgi davrda xalq xo'jaligida har xil turdagi transport vositalari ishlab turibdi. SHu sababli transport vositalarining ishonchligining oshirish katta iqtisodiy ahamiyatga ega. ekspluatatsiya davrida texnik xizmat va ta'mirlash uchun ketadigan sarf – xarajatlar transport vositasining boshlang'ich narxidan ancha ortiq. Ishonchlilik muammosini hal qilish katta mablag'larni tejash imkonini beradi.

Tayanch iboralar:

Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari, umumkasbiy fanlar bloki, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, diagnostika, kasb mahorati.

Nazorat savollari:

1. Umumkasbiy fanlar tasnifini keltiring va qisqacha izohlang.
2. Jamiyatning rivojlanishida oliy texnik ta'limning tutgan o'rni.
3. Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari kursi nimani o'rganadi?
4. Ichki yonuv dvigatellari fani nimani o'rgandi?

Mavzu - 4. IXTISOSLIK FANLAR BLOKI HAQIDA UMUMIY

TUSHUNCHA. (2-soat)

Reja:

- 4.1.** Ixtisoslik fanlarining tasnifi.
- 4.2.** Ixtisoslik fanlar bloki va umumkasbiy fanlar blokining o'zaro bog'liqligi.
- 4.3.** Ixtisoslik fanlarni o'qitishdan maqsad va ular haqida tushuncha berish.

Adabiyotlar:

1. S.M. Babusenko «Traktor va avtomobillar remonti» T.:O'qtuvchi, 1990 y.
2. B.A. Xo'jaev «Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari» fani bo'yicha ma'ruzalar matni. Toshkent 2001 y.

4.1. Ixtisoslik fanlarining tasnifi.

«Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishidagi talabalarga ixtisoslik fanlar blokida, ya'ni to'rtinchi blokda quyidagi fanlar olib boriladi:

1. Avtomobillarni ta'mirlash
2. Avtomobil transportini ishlatish
3. Avtomobillarni texnik ishlatish
4. Avtomobillarni elektr jihozlari.

Avtomobillarni ta'mirlash fani – detallar va yig'ish birikmalarining eyilishi hamda boshqa asosiy shikastlanish sabablarini oydinlashtirish, avtomobil detallarining ehtimoli bor nuqsonlari, ularni topish va bartaraf etish usullari haqida asosiy ma'lumotlar berish, tiklanadigan detal' va birikmalarning eyilishga chidamliligi hamda ishonchliligini oshiruvchi tadbirlarni tavsiflash, o'quvchilarga ilg'or texnologiya jarayonlari va avtomobillarni ta'mirlash usullarini, ta'mir-texnologiya jihozlarini bilib olishlarida yordam berish, shuningdek, ularni avtomobillarni ta'mirlashda xavfsiz ishlash talablari bilan ta'mirlash ishlarini tashkil etish va uning iqtisodiy asoslari bilan tanishtirishdan iborat.

Avtomobil transportini ishlatish faning maqsadi va vazifalari .

Yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi transportsiz rivojlangan jamiyat asosini yaratib bo'lmaydi. Chunki, transport har qanday mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarkibiy qismidir.

Transport yaxshi ishlashining belgilovchi muhim omillardan biri uning yuk va yo'lovchilarni tashish muntazamligidir. Zarur mahsulot, xom ashyo, ehtiyot qismlar, yonilg'ilar o'z vaqtida va muntazam tashilgandagina ularning omborlardagi zaxiralari eng kam miqdorda bo'lishi va ishlab chiqarishni beto'xtov tashkil etish imkoniyati bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish mulkchilik shaklini o'zgarishi, xususiy avtomobillarni ko'payishi va yangilanishi, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stantsiyalarini ochilishi yuk va yo'lovchilar tashish xususiyatini o'zgarishiga va raqobatni oshishiga olib kelmokda.

Transport xo'jalik vazifalarini bajarish, tabiat boyliklaridan foydalanish, davlat mudofaa qudratini oshirish, odamlarni muntazam aloqalarini ta'minlash imkonini beradi.

Avtomobil transportining yuqorida keltirilgan vazifalaridan kelib chiqqan holda, transport vositalaridan foydalanish yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda fanning maqsadi talabalarga xalq xo'jaligi sohalari va kishilarning ishlab chiqarishlari bilan bog'liq moddiy buyumlarini zarur joylarga belgilangan vaqtda va sifatli darajada etkazib berish hamda aholining yo'lovchilar tashish transportiga bo'lgan ehtiyojini muntazam qondirishni tashkil etish, transport vositalaridan samarali foydalanish va ularni to'g'ri tanlash ko'nikmalarini o'rgatishdan iborat.

Avtomobillarni texnik ishlatish fani – yuk va yo'lovchi tashish rejalarini muvoffaqiyatli bajarishda, harakatlanuvchi tarkibdan foydalanishda ularni texnikaviy jihatdan soz bo'lishini yo'l yo'riqlarini o'rgatadi.

Avtomobillarni agregat, mexanizimlarni texnikaviy holati deganda ishonchliligi, yonilg'i tejashi, tezkorlik va harakat xavfsizliklari tushuniladi.

Avtomobillarning uzoq ishlashi natijasida miqdoriy ko'rsatkichlari kamayib, uning xossasini o'zgartiradi, shuningdek, avtomobilning texnikaviy holati yomonlashadi, bu esa, avtomobilning ishchanligi qisman yoki butunlay yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Avtomobilning ishchanlik holati deganda unga topshirilgan vazifani ma'lum davr ichida ishlatuvchanlik xossali ko'rsatkichlari tushuniladi.

Avtomobilning texnikaviy holati, ishchanligining talab darajasida bo'lishi uchun, o'zgarish sabablarini bilish va o'z vaqtida aniqlash usullarini qo'llab, nosozliklar bartaraf etilishi lozim. «Avtomobillarni texnik ishlatish» fani ana shu maqsadlar uchun xizmat qiladi. Bu fan avtomobil texnikaviy holatini o'zgarish sabablari, qonuniyatlarini va ishchanligini saqlash uchun zarur vositalarni, texnikaviy xizmat ko'rsatish, (ta'mirlash) sozlash va saqlash usullarini shuningdek, texnikaviy hujjatlar talabi asosida avtomobillarning ekspluatatsion xossalari va miqdoriy ko'rsatkichlarini ta'minlashning yo'l-yo'riqlarini o'rgatadi.

4.2. Ixtisoslik fanlar bloki va umumkasbiy fanlar blokining o'zaro bog'liqligi.

Ixtisoslik fanlar bloki bilan umumkasbiy fanlar bloki bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir. Ixtisoslik fanlarni o'rganish uchun avvalo, umumkasbiy fanlarni yaxshi o'zlashtirish lozim. Chunki, umumkasbiy fanlar ixtisoslik fanlarining tayanchi hisoblanadi.

1- jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir ixtisoslik fan bir qancha umumkasbiy fanlar bilan bog'liqlikda olib boriladi.

O'z navbatida umumkasbiy fanlar ham bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi. Masalan, transport vositalarida ishlatiladigan materiallar fanini asosini kimyo, gidravlika va gidrohavoli uzatma, hayot faoliyati xavfsizligi hamda ichki yonuv dvigatellari kabi fanlar tashkil etadi.

Ixtisoslik fanlar va umumkasbiy fanlar orasidagi bog'liqlik

№	Ixtisoslik fanlar bloki	Umumkasbiy fanlar bloki
1.	Avtomobillarni ta'mirlash fani	Metralogiya va standartlash va o'zaro almashtirish
		Materiallar qarshiligi
		Mashina qismlari
		Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi
		Transport vositalari tuzilishi va nazariyasi
		Ichki yonuv dvigatellari
		Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari
		Transport vositalarida ishlatiladigan materiallar
2.	Avtomobil transportini ishlatish	Avtomobil transporti iqtisodiyoti
		Texnik tizimlarni boshqarish
		Transport vositalari tuzilishi va nazariyasi
		Ichki yonuv dvigatellari
		Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari
		Yo'l harakati qoidalari va avtomobillarni boshqarish
3.	Avtomobillarni texnik ishlatish	Metralogiya va standartlash va o'zaro almashtirish
		Materiallar qarshiligi
		Mashina qismlari
		Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi
		Transport vositalari tuzilishi va nazariyasi
		Ichki yonuv dvigatellari
		Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari
		Transport vositalarida ishlatiladigan materiallar
4.	Avtomobillarni elektr jihozlari	Elektrotexnika, elektronika asoslari
		Transport vositalari tuzilishi va nazariyasi
		Ichki yonuv dvigatellari
		Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari

4.3. Ixtisoslik fanlarni o'qitishdan maqsad va ular haqida tushuncha berish.

«Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar fundamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis bo'lib, ular

- Avtotransport korxonalari;
- Transport vositalarini ta'mirlash;
- Transport vositalarini ishlatish;
- Transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish;

- Kasb-hunar kollejlarda o'quv ustosi kabi sohalarda kasbiy faoliyat ko'rsatadilar.

Bu sohalarda ishlash uchun bakalavrlar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy hamda ixtisoslik kabi fanlar bloki bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Chunki ushbu fanlar tabiat qonunlarini chuqur o'rgatuvchi fanlar hisoblanib, tabiatda inson ishtirokisiz ro'y beradigan jarayonlar, hodisalar va voqealarni turli qonuniyatlar asosida izohlab beradi. Tabiat qonunlarini chuqur bilmagan muxandis ish jarayonida uchraydigan muammolar, qiyinchiliklar va kundalik masalalarni echa olmaydi. SHuning uchun «Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashda fanlar blokining tutgan o'rni beqiyosdir.

Tabiiy, fundamental fanlarni o'rganmasdan turib, mutaxassislik fanlarini o'rganish aslo mumkin emas.

Tayanch iboralar:

Avtomobillarni ta'mirlash, avtomobil transportini ishlatish avtomobillarni texnik ishlatish, fanlararo bog'liqliq, kasbiy faoliyat, avtomobilning ishchanlik holati, avtomobillarning texnik holati.

Nazorat savollari:

1. Avtomobillarni ta'mirlash fani nimani o'rganadi?
2. Avtomobillarni texnik ishlatish fani nimani o'rganadi?
3. Avtomobil transportini ishlatish fanining maqsadi va vazifasini tushuntiring.
4. Ixtisoslik fanlari va umumkasbiy fanlar orasidagi bog'liqlikni izohlang.

**Mavzu - 5. BAKALAVR PEDAGOGLARNI O'QITISH
JARAYONIDA BILIMLARINI BAHOLASH TIZIMI. (2-soat)**

Reja:

- 5.1.** Baholash tizimlari haqida tushuncha.
- 5.2.** Bakalavr pedagoglarni o'qitish jarayonida, reyting nazorat tizimidan foydalanish mohiyati.
- 5.3.** Nazorat turlari haqida tushuncha berish.

Adabiyotlar:

1. "Oliy ta'lim", Me'yoriy hujjatlar to'plami. II qism. Toshkent, "Sharq". 2001 y.

5.1. Baholash tizimlari haqida tushuncha.

Talabalar bilimini reyting tizimi orqali baholashdan maqsad, talabalarda o'qilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarga ijodiy yondoshish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini muntazam ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarini rivojlantirish va ushbu tariqa raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishish.

Reyting tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- talabalar o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni semestr (o'quv yili) davomida o'z ustilarida uzluksiz faol ishlashlarini ta'minlash;
- talabalar bilimini haqqoniy, aniq va adolatli baholash hamda natijalarini ularga muntazam ravishda ma'lum qilish;
- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirish;
- professor-o'qituvchilarda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, baholash savollarini tuzishda mas'uliyatini oshirish.

Fan bo'yicha maksimal reyting bali, o'quv rejasida aynan shu fanga ajratilgan soatlar miqdori bilan belgilanadi.

Talaba bilimini baholashda, avval uning o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlanadi, so'ng dars soatlari miqdoriga muvofiq, uning fan bo'yicha reytingi hisoblab topiladi.

5.2. Bakalavr pedagoglarni o'qitish jarayonida, reyting nazorat tizimidan foydalanish mohiyati.

Talabalar bilimini reyting tizimi orqali baholashdan maqsad, talabalarda o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarga ijodiy yondoshish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini mustaqil ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish va ushbu tariqa raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga erishishdir.

Reyting atamasi inglizcha **«r a t i n g»** so'zidan olingan bo'lib, baholash ma'nosini anglatadi.

Baholashning reyting tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- talabalar o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni semestr (o'quv yili) davomida o'z ustilarida uzluksiz faol ishlashlarini ta'minlash;
- talabalar bilimini haqqoniy, aniq va adolatli baholash hamda natijalarini ularga muntazam ravishda ma'lum qilish;
- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirish;
- professor – o'qituvchilarda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rish, baholash savollarini tuzishda ma'suliyatni oshirish.

Tegishli fan bo'yicha maksimal reyting bali, o'quv rejasida aynan shu fanga ajratilgan auditoriya soatlari miqdori bilan belgilanadi.

Talabalar bilimini baholashda, avvalo ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlari aniqlanadi, so'ngra dars soatlari miqdoriga muvofiq, ularning mazkur fan bo'yicha reytingi hisoblab topiladi.

Talabalarining fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr ya'ni, o'quv yili davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi baholash turlari orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB)

- mustaqil ta`lim ishini baholash (MTIB)
- oraliq baholash (OB)
- yakuniy baholash (YaB)

5.3. *Nazorat turlari haqida tushuncha berish.*

Fan bo'yicha talaba o'zlashtirishini quyidagi baholash turlari va shakllaridan foydalaniladi:

- joriy baholash (JB)
- mustaqil ta`lim ishini baholash (MTIB)
- oraliq baholash (OB)
- yakuniy baholash (YAB)

Joriy baholash (JB) – da fanning har bir mavzusi bo'yicha talabaning bilim darajasini (o'zlashtirishini) aniqlab borish nazarda tutiladi va u odatda, amaliy mashg'ulotlar (seminar yoki tajriba ishlari) darslarida amalga oshirilishi mumkin.

Oraliq baholash (OB) - da fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bilim yoki qism bo'yicha nazariy mashg'ulotlar o'tib bo'lgandan so'ng talabalarning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabaning muayyan savol yoki muammoni echish mahorati va qobiliyati aniqlanadi.

Yakuniy baholash (YAB) - da fanning semestr (o'quv yili) davmida o'tilgan hajmi doirasida talabaning bilim, ko'nikma va malakalari baholanadi. Yakuniy baholash semestr yakunida o'tkaziladi.

Muayyan fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: yakuniy baholashga 15 ball, qolgan 85 ball esa oliy ta`lim muassasi tomonidan kafedra taklifi asosida fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda joriy va oraliq baholashga taqsimlanadi.

Talabalar bilimini reyting tizimi bo'yicha baholashning yozma ish usuli, talabalarda mustaqil fikrlash va o'z fikrini yozma ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talaba bilimini reyting tizimi bo'yicha baholashning yozma ish usuli oraliq baholash, yakuniy baholash va Yakuniy Davlat attestatsiyasi bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin.

Fan bo'yicha yakuniy baholash va Yakuniy Davlat attestatsiyasida yozma ish usulini qo'llash oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan belgilanadi (o'quv rejasi bo'yicha semestr yakunlanayotgan fanlarning 50% dan kam bo'lmagan holda). Boshqa fanlardan YAB turlarini o'tkazish tartibi (test, og'zaki, himoya va hokazo) oliy ta'lim muassasasi uslubiy kengashi tomonidan belgilanadi.

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatidan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayan o'quv ishlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Tayanch iboralar:

Baholash tizimlari, reyting tizimi, nazorat turlari, joriy baholash, oraliq baholash, yakuniy baholash, mustaqil ish.

Nazorat savollari:

1. Talabalar bilimini reyting tizimi orqali baholashning maqsadi va vazifasi nimaga qaratilgan?
2. Bakalavr pedagoglarni o'qitish jarayonida, reyting nazorat tizimidan foydalanishning mohiyati.
3. Qanday nazorat turlarini bilasiz va ularga qisqacha izoh bering.

Mavzu - 6. BAHOLASH MEZONLARI BO'YICHA

UMUMIY MA'LUMOT. (2-soat)

Reja:

- 6.1.** Baholash mezonlari haqida tushuncha.
- 6.2.** Baholash mezonlarini har bir fan bo'yicha ishlab chiqishning maqsadi.
- 6.3.** Talabalar bilim darajasini oqilona baholash.

Adabiyotlar:

- 1. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi «NIZOM».
- 2. Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida «NIZOM».

6.1. Baholash mezonlari haqida tushuncha.

Semestr davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal balning kamida 55 foizini to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Semestr davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal balning 55 foizidan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan talaba (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86-100 foiz - «a`lo»;
- 71-85 foiz - «yaxshi»;
- 55 fozidan kam – «qoniqarsiz».

Talabaning barcha turdagi amaliyotlardan olgan bilim va ko'nikmalari, kurs ish yoki kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi (loyihasi), davlat attestatsiyasi natijalari o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi va reyting daftarchasida alohida kayd etiladi.

Bunda quyidagi tartibda reyting ballar belgilanadi.

- malkaviy amaliyotga ajratilgan reyting ballar miqdori, shu amaliyotga ajratilgan akademik soatlarga tengdir;

- har bir yakuniy davlat attestatsiyasi ajratilgan maksimal reyting ballar miqdori – 100 ball, deb qabul qilinadi.

- kurs loyihalari uchun ajratilgan reyting ballar miqdori – 50 ball;

- kurs ishi uchun – 30 ball, deb qabul qilinadi.

Reyting ballarini hisoblashda talabani o'quv mashg'ulotlaridagi faolligi, mustaqil ishlarni bajarishga ijodiy yondasha olish, o'quv-mehnat intizomiga amal qilish sifatlari ham hisobga olinishi (reyting bali doirasida 10% gacha) maqsadga muvofiq.

Joriy baholash (JB), oraliq baholash (OB) va yakuniy baholash (YAB) turlarida fanni o'zlashtira olmagan (55% dan kam ball to'plagan) yoki sababli baholash turlarida ishtirok eta olmagan talabalarga bir hafta muddat ichida qayta baholashdan o'tishga ruxsat beriladi.

Fan bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballning 55% dan kam ball to'plagan talaba, belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi (birinchi kurs talabalariga nisbatan o'quv yili yakunlari bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq).

Talabani kursdan kursga o'tkazishda o'quv rejada muayyan semestr (o'quv yil)ga belgilangan fanlardan talaba to'plagan reyting ballar miqdori hisobga olinadi va rektorning buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

6.2. Baholash mezonlarini har bir fan bo'yicha ishlab chiqishning maqsadi.

Fanlar bo'yicha baholash mezonlari ta'lim yo'nalishlari hamda fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, kafedralarda alohida tuzilishi mumkin.

Fanlar bo'yicha umumiy mezonlar quyidagicha:

- o'zlashtirish ko'rsatkichi 86-100%

Fanni o'quv dasturiga kiritilgan mavzular materiallarini to'liq o'zlashtirganda, o'z xatoliklarini talaba o'zi tuzata bilgan holda.

Fanga qiziqishi, yaratuvchanligi, yangi texnika – texnologiyalarga intilishi, murakkab topshiriqlarni bajarishga harakatlanganligi, internet orkali olingan yangiliklarni taxlil etib bilganligi.

- o'zlashtirish ko'rsatkichi 71-85% fanni o'quv dasturiga kiritilgan mavzular bo'yicha materiallarni to'liq izoxlab bergan, ba'zi ahamiyatga ega bulmagan xatoliklarda yo'l kuygan va bu xatoliklarni ukituvchi ko'rsatmasi asosida tuzata olgan holda.

Fanga qiziqish, yangi texnika-texnologiyalarga qiziqishni namoyon etishi, murakkab topshiriqlarni bajarishga intilishi.

- o'zlashtirish ko'rsatkichi 55-70%.

Fani o'quv dasturga kiritilgan mavzular bo'yicha mavzularni to'liq izoxlamagan, fanni boshqa kismlarini o'rganishga xalakit bermaydigan ayrim ahamiyatga ega bulmagan xatoliklarga yo'l kuygan, bu xatoliklarni ukituvchi yordamida tuzatilagn xollarda.

Fani o'rganishda yangi texnika-texnologiyalarga qiziqishi passivligi, murakkab topshiriqlarni bajarishlarga intilishi yukligi.

- o'zlashtirish ko'rsatkichi 55% dan past o'quv dasturiga kirgan mavzular bo'yicha materiallarni to'liq bilmagan, tizimlashtirilmagan va tuztib bulmaydigan xatoliklarga yo'l kuygan holda.

Baholash mezonlarini har bir fan bo'yicha ishlab chikishdan maqsad shundaki, o'quv rejasida belgilangan auditoriya soatlari turli fanlar bo'yicha turlicha miqdorda belgilangan.

Masalan, yuqorida keltirilgan izoxlarni inobatga olgan holda, «Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishi talabalari bilimini «**Mutaxassislikka kirish**» fanidan ishlab chiqilgan b a x o l a sh m e z o n i misol tarikasida keltiramiz.

№	Yo'nalish	Belgilangan reyting ballari						
		JB – 36		MT – 24		OB – 25	YAB	Jami
		JB-1	JB-2	MT-1	MT-2			
1	MTVI	18	18	12	12	25	15	100

O'quv dasturiga ko'ra 18 soat ma'ruza, 18 soat amaliy va 24 soat mustaqil ta'lim rejalashtirilgan.

Joriy baholash (JB) – amaliy darslarda har bir mavzu asosida talabaning o'zlashtirishi bo'yicha baholanadi.

Semestr davomida 1-kurs «Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishidagi kunduzgi ta'lim talabalari 18 soat amaliy mashg'ulot mobaynida 9 ta amaliy mashg'ulot bajarishlari lozim.

- a) talaba darsga kelmasa 0 ball qo'yiladi.
- b) talaba darsga passiv qatnashsa va amaliy mashg'ulotni bajarmasa 0,25 ball qo'yiladi.
- v) talaba amaliy mashg'ulotni bajarsa, biroq himoya qilmasa 1,9 ball qo'yiladi.
- g) talaba mashg'ulotga faol qatnashib 1 ta amaliy mashg'ulotni bajarsa va himoya qilsa 3,75 ball qo'yiladi.

Mustaqil ta'limda (MT) – talaba o'ziga berilgan topshiriqni yoki uy vazifasini mustaqil tarzda bajarishi lozim. Mustaqil ta'lim «referat» shaklida bo'lib, o'qituvchi tomonidan ishchi dasturdagi barcha mavzular asosida tuzilgan referat mavzusi bo'yicha o'tkaziladi.

- a) talaba referat yozmasa va himoyalamas «0» ball qo'yiladi.
- b) talaba referat yozsa, biroq himoya qilmasa 12 ball qo'yiladi.
- v) talaba mustaqil ta'limda berilgan topshiriqni «referat» shaklida yozsa va himoyalasa 24 ball qo'yiladi.

Oraliq baholash (OB) – ma'ruza mashg'uloti bo'limi yoki qismi bo'yicha baholanadi.

Talabaning fanni o'zlashtirib borishi oraliq baholashda quyidagi tartibda baholanib boriladi:

- a) talaba darsga qatnashmasa ya'ni, kelmasa «0» ball;

b) talaba darsga passiv qatnashsa biroq, o'tilgan mavzularni konspektlashtirib bormasa 0,25 ball;

v) talaba har bir juft ma'ruza mashg'ulotiga faol qatnashib, o'tilgan mavzularni konspektlashtirib borsa 0,5 ball;

g) OB kafedrada ishchi dastur asosida tuzilgan savollar bo'yicha o'tkaziladi. OB yozma shaklda bo'lib, har bir variantda 4 ta savol keltirilgan va 1 ta to'g'ri javob 5,1 ball bilan baholanadi.

Yakuniy baholash (YAB) – yozma shaklda, ishchi dasturdagi barcha mavzular asosida tuzilgan savollar bo'yicha o'tkaziladi.

a) Har bir variantda 5 tadan savol bo'lib, 1 ta to'g'ri javob «3» ball bilan baholanadi.

Talaba JB, MT, OB, va YAB larning har biridan 55% dan ortiq ball yig'ishi shart.

6.3. Talabalar bilim darajasini oqilona baholash.

Reyting natijalarini kayd qilish tartibi:

Har bir fan bo'yicha o'tkazilgan baholash turlarida talaba to'plagan reyting ballar miqdori, belgilangan tartibda tasdiqlangan shakldagi kaydnomada kayd qilinadi.

Semestr davomida fan bo'yicha o'tkazilgan baholash turlarida talaba to'plagan umumiy ball, talabaning «Reyting daftarchasi» ga yoziladi.

Talaba, fan bo'yicha o'tkazilgan baholash turlarida, fanga ajratilgan maksimal ballning 55% dan kam ball to'plagan holda, uning shu fan bo'yicha to'plagan reyting ballari «Reyting daftarchasi» da kayd etilmaydi.

Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan baholash turlarining (JB, OB va YaB) natijalari dekanat va kafedralar tomonidan reyting nazorati ekranida muntazam ravishda yoritib boriladi.

Reyting nazorati ekranini tashkil etish va uni belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish vazifasi fakul'tet dekani zimmasiga yuklatiladi.

Talabalar bilimini reyting tizimi bo'yicha baholashning tayanch tushunchalariga asoslangan «Yozma ish» usuli, talabalarda o'tilgan fanlarga nisbatan ijodiy yondoshish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanish, o'tilgan fanlarning muayyan mavzulari bo'yicha to'zilgan tayanch tushunchalarga asoslangan holda, o'z fikrlarini yozma ravishda anik va lo'nda ifodalab berish hamda taxlil etish kabi xususiyatlarni, shuningdek, professor-o'kituvchilardan o'z fanlarini chukur egallashni hamda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishni, yozma ish savollarini tayyorlashga mas'uliyat bilan yondoshishni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Talabalar bilimini baholashning tayanch tushunchalarga asoslangan «Yozma ish» usuli, reyting tizimining Yakuniy baholash boskichida amalga oshiriladi.

Yakuniy baholash boskichini «Yozma ish» usulida o'tkazish fanlarini tanlash xukuki oliy ta'lim muassasalariga beriladi (o'kuv rejada belgilangan fanlarning 50% dan kam bo'lmagan holda). «Yozma ish» o'tkaziladigan fanlar rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Kolgan fanlardan YaB turini o'tkazish tartibi (ogzaki, ximoya va hokazo) oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

Yakuniy baholash boskichida «Yozma ish» usuli belgilangan fanlardan Joriy (JB) va oraliq baholash (OB) boskichlarida to'plangan ballar miqdorida qat'iy nazar, talaba «Yozma ish» topshirishi shart.

Tayanch iboralar:

Malakaviy amaliyot, kurs loyihasi, kurs ishi, reyting bali, joriy baholash, semestr, o'zlashtirish ko'rsatkichi, baholash mezon, mustaqil ta'lim, oraliq baholash, yozma ish usuli.

Nazorat savollari:

1. Baholash mezonlari xakida tushuncha bering.
2. Nima uchun baholash mezonlarini har bir fan bo'yicha ishlab chiqiladi?
3. Mutaxassislikka kirish fani bo'yicha ishlab chiqilgan baholash mezonini izoxlang.
4. Reyting natijalarini qanday tartibda kayd kilib boriladi?

Mavzu - 7. TRANSPORT VOSITALARINI TEXNIK ISHLATISH BO'YICHA ASOSIY TUSHUNCHALAR. (2-soat)

Reja:

- 7.1.** Transport vositalarini texnik ishlatish mohiyati.
- 7.2.** Transport vositalariga o'tkaziladigan texnik xizmat turlari.
- 7.3.** Avtotransport korxonalarida texnik xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etish uslublari.

Adabiyotlar:

- 1. G.V. Kramarenko, I.V. Barashkov «Avtomobillarga texnikaviy xizmat ko'rsatish» T.:O'zbekiston, 1998 y, 8 b.
- 2. V.I. Karagodin, S.K. Shestopalov «Avtomobillar remonti slesari» T.:Ukituvchi, 1988 y, 98 b.

7.1. Transport vositalarini texnik ishlatish mohiyati.

Mamlakatni avtomobillashtirish avtomobil transporti zimmasiga muhim vazifalar yuklaydi. Bulardan muhimi TXK va ta'mirlash ishlari texnologiyasi jarayonining tashkil etishning takomillashtirish, ish sifatini yaxshilash va ta'mirlashda to'xtab turishni qisqartirish, mehnat va material sarfini kamaytirish kabilardir.

Shuning uchun ilmiy texnika tarakkiyotining muhim vazifalari: TXK va ta'mirlashdagi mehnat va material sarfini kamaytirish, shuningdek, harakatlanuvchi tarkibni ishlatishdagi mustahkamligini oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish, ATK ning ishlab chiqarish-texnika bazasini mustahkamlash, ishlab-chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash, ishlab chiqarishni boshqarish usullarini takomillashtirish, avtomobil haydashning ilg'or usullaridan foydalanish va boshqa tadbirlardan iborat.

Ishlab chiqarish-texnika bazasini takomillashtirish, yangi ATKlar qurish, ishlab chiqarishni jamlash va ixtisoslashtirish, ATKlarni ishlab chiqarish

birlashmalari sifatida yiriklashtirish, avtokombinatlar va markazlashgan texnikaviy xizmat ko'rsatish bazasi (MTXKB) ni rivojlantirish kabilar hisoblanadi.

ATKlarni yiriklashtirish kapital mablag'ni 50% tejashga olib keladi. Mexanizatsiya va avtomatizatsiyani ishlab chiqarish jarayonida keng ko'llash esa, ish bajarish muddatini kamaytirish, ish sifati va mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatini beradi.

MTXKBni tashkil etishda, ularning ish faoliyatiga texnik-iqtisodiy ko'rsatkichning ta'siri katta. Masalan, Rossiya transport vazirligi tajribasiga ko'ra, avtomobillarga TXK va JTning tannarxi 15-20% ga qisqaradi, ishchi kuchiga talab 10-15% ga, TXK ish hajmi ham 18-20% ga, JT ish hajmi esa 13-14% kamayishi ko'rsatib o'tilgan.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun ishlab chiqarish jaryonini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish va har bir ish joyini jihozlar hamda kerakli asbob uskunalar majmuasi bilan to'la ta'minlash zarurdir.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi talablarni amalga oshirish mehnat unumdorligining 15-20%ga oshishini ta'minlaydi. Ana shunday ijobiy natijalarga erishish uchun ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishni muntazam takomillashtirib turishning ahamiyati katta.

Mehnat unumdorligini oshirish, TXK va JT sifatini yaxshilanishida ishlab chiqarish jarayonida mehnatni ilmiy tashkil etishning (MITE-NOT) ahamiyati kattadir.

Shularga asosan ish joyini toza-ozoda va did bilan jihozlash, ishni to'g'ri tashkil etish va xizmat ko'rsatishni yaxshilash, ish vaqtini me'yorida zamonaviy uslublar bilan tashkil etish kabi tadbirlarni amalga oshirish zarurdir.

Izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ish joyini me'yorida tabiiy yoritish ishchilarning mehnat unumdorligini 10%ga oshiradi. ATKlarni yiriklashtirish, avtokombinatlar va ishlab chiqarish birlashmalari hosil qilish TXK va JTdagi boshqarish usullarini takomillashtirishni taqozo etadi va MTXKB yaratishga imkoniyat yaratadi. MTXKB esa hisoblash texnikasi va avtomatlashtirish, aloqa vositalaridan keng foydalanib, ilmiy asosdagi diagnostikani qo'llab ishlashni talab etadi.

7.2. Transport vositalariga o'tkaziladigan texnik xizmat turlari.

O'zbekistonda texnik xizmat ko'rsatish (TXK) va ta'mirlash (T) ishlari bo'yicha qabul qilingan «Nizom» (tartib qoida) tizimi, O'zavtosanoat uyushmasi roziligi bilan O'zavtotrans korporatsiyasi tomonidan tasdiqlangan, avtomobil transportiga TXK va T ishlari uchun chiqarilgan «Nizomga» asoslangan.

Mavjud «Nizom» quydagilarni ko'zda tutadi:

1. Kundalik texnik xizmat ko'rsatish (KTXK- EO)
2. Birinchi texnik xizmat ko'rsatish (1-TXK- TO-1)
3. Ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish (2-TXK- TO-2)
4. Mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish (MTXK- SO).

Bunday texnik xizmat ko'rsatishlar bir-biridan o'zining davriyligi va bajariladigan ish turlari (1-jadval) hamda hajmi farq qiladi.

KTXK (EO)- har kuni avtomobil ishdan qaytgandan so'ng bajarilib, bunda quydagi ishlar amalga oshiriladi: boshqarish mexanizimlari, yoritish uskunolari, kuzov, kabina, artish, tozalash, yuvish, quritish ishlari bo'yicha nazorat-ko'rik, shuningdek, yoqilg'i, moy sovitish suyuqliklari quyish, qisilgan havo bilan damlash. Avtomobillarni yuvish ehtiyojga qarab, ob-havo va iqlim sharoitiga, sanitariya va estetika talablariga mos holatda bajariladi.

1 – TXK(TO-1) – Avtomobilning hamma tashqi tomonini texnikaviy qarovdan o'tkazish ishlarini o'z ichiga oladi va belgilangan hajmdagi nazorat-tashxislash, mahkamlash, rostlash (sozlash), moylash, elektr jihozlari, dvigatelning ishlashini tekshirish, rul' boshqarmasi, tormoz va mexanizimlarning ishchanligi tekshirilib, yonilg'i, moy, suyuqlik bilan ta'minlash ishlari bajariladi.

2 – TXK(TO-2) - Avtomobil, agregat, mexanizim uskunalarining texnikaviy holatini tarkibiy tashxislashdan o'tkazadi va belgilangan hajmdagi mahkamlash, rostlash, moylash ishlaridan tashqari, agregat, mexanizim, uskuna asboblarning qanday ishlayotganligini tekshiradi.

MTXK – (SO) – Avtomobil turkumlarini (faslning sovuq va issiq oylarida) ishlatishga texnikaviy jihatdan tayyorlaydi, bu bir yilda 2 marta bajariladi hamda ko'pincha 1- TXK va 2- TXK ga qo'shib amalga oshiriladi.

**Joriy ta`mirlash (JT)** – avtomobilni (agregatni) ishlatish, TXK jarayonida hosil bo`luvchi to`xtash, buzilish va nosozliklarni bartaraf etadi va avtomobilni mukammal ta`mirlashgacha bosib o`tadigan yo`lni bosib o`tishini ta`minlaydi.

1-jadval

1 – toifali ishlatish sharoiti uchun, avtomobillarga TXK davriyligi

Avtomobillar toifasi	Davriyligi, km - da	
	1-TXK	2-TXK
Engil avtomobillar	3600	14400
Avtobuslar	3150	12600
Yuk yoki yuk avtomobillari asosidagi avtobuslar	2700	10800

JT talab - ehtiyojiga qarab bajariladi va ishdan tashqari vaqtda (ATK da) o`tkaziladi. Avtomobilning ishlashi TXK jarayonida yoki ishdan qaytgandan so`ng tekshirishlar natijasida JT ga talab ehtiyoj tug`iladi. JT da ajratish, chilangarlik, payvandlash, shuningdek, agregatlar alohida uzal va detallarni almashtirish amalga oshiriladi. JT ni haqiqiy davriyligicha bog`liq holda o`tkazilishi uning tez-tez takrorlanib turuvchi ko`rinishi majburiy bajariladigan ishlar tarkibiga kiradi. Bunday ta`mirlash TXK dan alohida bajariladi. Agarda TXK ga qo`shib bajarilsa, birgalikdagi joriy ta`mirlash deyiladi.

**Mukammal ta`mirlash** avtomobilning texnikaviy holatini puxta o`rganish, texnikaviy ko`rik va bosib o`tgan yo`liga bog`liq holda tashxislash va ehtiyot qism sarfi natijalariga ko`ra o`tkaziladi. Mukammal ta`mirlashda agregatlar alohida echib olinadi, so`ngra uzal va detallarga ajratiladi, ular ta`mirlanib tiklanadi yoki almashtiriladi.

7.3. Avtotransport korxonalarida texnik xizmat ko`rsatish ishlarini tashkil etish uslublari.

ATK dagi ishlab chiqarishni zimmasiga harakatlanuvchi takibga eng kam chiqim sarflab hamda postda avtomobillarni qisqa vaqt to`xtatib, TXK va T ishlarini bajarish hamda ishlab chiqarish (1) samaradorligini oshirish uchun

hamma tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklangan. Avtomobillarni va asosiy agregatlarni mukammal ta'mirlash, avtotat'mirlash korxonalarida amalga oshiriladi.

Ko'p avtotransport boshqarmalarida, o'z avtomobillarini agregat va bo'g'inlarini ta'mirlaydigan ustaxonalar tashkil etilgan. Bunday ATK boshqarmalaridagi ustaxonalarga agregatlar, bo'g'in va asboblarni ta'mirlashga topshiriladi. ATK dagi ishlab chiqarishda harakatlanuvchi tarkibga TXK va T o'tkazish uchun ro'yxatdagi ishchi va xizmatchilar, ishlab chiqarish binolari, texnologik jihoz-dastgohlar mavjud, ehtiyot qism va ashyolar bilan ta'minlangan. Ishlab chiqarishni tashkil etish ish vaqtidan, mehnat, ish vositalaridan, ehtiyot qism va ashyolardan, ishlab chiqarish bazasi hamda korxona ishlab chiqarish jamoasidan samarali foydalanishni taqozo etadi.

ATK va ularning yuqori tashkilotlari ishlab chiqarishni tashkil etish borasida ishlab chiqarish strukturasi va texnologik jarayoni, mehnatni tashkil etish va unga xaq to'lash, ishlab chiqarishni hisobga olish, tahlil qilish va rivojlantirish, ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtiradilar, ishlab chiqarish samaradorligi va ishlar sifatini oshirish tadbirlarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishni takomillashtirish, bevosita bir-biri bilan bog'liqdir. Shuning uchun bu ishlar amaldagi korxonada qanday bog'liqlikda bo'lsa, shunday o'rganiladi va amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda bajariladigan ishlarni hajmi va mazmuni sutkalik o'rtacha bosib o'tiladigan yo'l, sharoiti va uni «yoshi» o'zgarishi sababli o'zgaradi. Ishlab chiqarish o'zgaruvchan hajmdagi ishlarni bajarish uchun zarur resurslarga ega bo'lishi va ishlab chiqarish tegishli tashkil etilishi kerak. Ishlab chiqarishni shunday tashkil etish kerakki, shundan keyin avtomobillarga TXK va T o'tkazish qat'iy belgilangan vaqtda, sifatli amalga oshirilsin. Ishlarning o'z vaqtida bajarilmasligi natijasida avtomobillarning postda to'xtab turish vaqti uzayadi, ularni ishga chiqarish va tashish rejasini bajarishi pasayadi. Belgilangan vaqtda shu ishlarni bajarish, asosan, ishlab chiqarishni tashkil etish va mexanizatsiyalash darajasiga hamda avtomobillarni ta'mirlashlar soniga bog'liq. ATKda, avtomobillarni JTLar sonining kamayishi, asosan haydovchining avtomobildan ehtiyotkorlik bilan foydalanishiga va TXK va T

sifati oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ishlab chiqarishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan barcha tadbirlar avvalo ishlab chiqarish xodimining va haydovchining avtomobillarni texnikaviy holatini sifatini tuzuk holda saqlashga ma'suliyatini oshirishni ta'minlashi kerak. Avtomobillarga TXK va T o'tkazish katta ish hajmiga ega bo'lib, ular turlicha mazmunda o'tkaziladi. Bu ishlarni sifatli bajarilishini nazorat qilish uchun ko'p vaqt sarflanadi va samaradorligi kam. Shuning uchun, haraktlanuvchi tarkibga TXK av T sifatini oshirishda faqat nazoratni kuchaytirib kolmay, balki ishlab chiqarish xodimini sifatli ish bajarishiga imkoniyat yaratib berish kerak.

Bu va boshqa muhim vazifalar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishni murakkablashtiradi va mutaxassislar malakasiga yuksak talablar qo'yadi.

ATK da ishlab chiqarish samaradorligini oshirish xalq xo'jaligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa ko'p hamda turli omillarga, shuningdek, xozirgi paytda, samaradorlikni oshirish ishlab chiqarishni tashkil etish darajasiga bog'liq bo'ladi.

(1) Izoh: Bu yerda (va kelgusida) ishlab chiqarish samaradorligi deganda, bitta haraktlanuvchi tarkibga TXK va T ko'rsatish uchun, avtomobilni postda qisqa vaqt to'xtatib, eng kam miqdorda mehnat, vositalar va ashyolarni sarf etish tushiniladi.

Tayanch iboralar:

Mehnat unumdorligi, texnik xizmat ko'rsatish turlari, kundalik texnik xizmat ko'rsati, birinchi texnik xizmat ko'rsatish, ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish, mavsumiy xizmat ko'rsatish, joriy ta'mirlash, mukammal ta'mirlash, ishlab chiqarish, samaradorlikni oshirish.

Nazorat savollari:

1. Transport vositalarini texnik ishlatish mohiyatini tushuntirng.
2. Transport vositalariga qanday texnik xizmat ko'rsatish turlari kulaniladi?
3. Kundalik xizmat ko'rsatish va birinchi texnik xizmat ko'rsatishni izoxlang.
4. 2-TXK, MTXK, joriy ta'mirlash va mukammal ta'mirlashda kaysi ishlar bajariladi?
5. Avtotransport korxonalarida texnik xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etish uslublari xakida tushuncha bering.

Mavzu-8. TRANSPORT VOSITALARINI TA`MIRLASH BO`YICHA ASOSIY TUSHUNCHALAR. (2-soat)

Reja:

8.1. Transport vositalarini ta`mirlash, sozlash va yaroqli-yaroqsizga ajratish tushunchalari.

8.2. Transport vositalarini ta`mirlashda ishlab chiqarish jarayoni.

8.3. Transport vositalarini ta`mirlash korxonalari haqida tushuncha.

Adabiyotlar:

1. I. E. Ul'man «Mashinalar remonti» T.:O'qituvchi, 1979 y.
2. V.I. Karagodin, S.K. Shestopalov «Avtomobillar remonti slesari» T.:Ukituvchi, 1988 y, 98 b.
3. G.V. Kramarenko, I.V. Barashkov «Avtomobillarga texnikaviy xizmat ko'rsatish» T.:O'zbekiston, 1998 y, 270 b.

8.1. Transport vositalarini ta`mirlash, sozlash va yaroqli-yaroqsizga ajratish tushunchalari.

«**Ta`mirlash**» deganda elementlarning yoki umuman avtomobilning normal ish qobiliyatini hosil qilish uchun bajariladigan ishlar yig'indisi tushuniladi. Bu ishlarga avtomobilni qismlarga ajratish, yuvish, defektovka qilish, yig'ish chiniqtirish, bo'yash, nazorat qilish ishlari kiradi.

Detallarni nuqsonlarini tuzatishda va turli ishlov berish usullari bilan ularga dastlabki o'lchamlari, shakli va fizika-mexanikaviy xossalari kompleksi qayta berilganda «tiklash» termini qo'llanadi.

Avtomobilni ta`mir qilish ishlab chiqarish protsessi uni tayyorlash ishlab chiqarish protsessidan farq kilib, ta`mirlashga tayyorlash, tozalash va ko'p marta takroriy yuvish, qismlarga ajratish, yoyilgan tutashmalar va detallarni kontrol qilish va ularni tiklash kabi texnologik protsesslardan iborat.

Sirtqi katlamning yeyilishi, material xossalarining, detal' shakli, o'lchamlari va massasining o'zgarishi – bularning hammasi uzluksiz, asta-sekin o'sib boruvchi protsesslardir.

Detallarning ishida sifatiy o'zgarish sodir bo'lganda bu protsesslar sezilarli bo'lib qoladi: ko'zgalmas birikmalar ko'zg'aluvchan, jips tutashma nozik bo'lib qoladi; ko'zg'aluvchan birikmadagi kattalashgan zazor nonormal shovkinlar hosil bo'lishiga yoki ish ko'rsatkichlarining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Detallarni yarokli-yaroksizga ajratish vazifasi nuqsonlarning qiymatlarini belgilashdan iborat, nuqson chegaraviy qiymatga ega bo'lganda detallar holatining va ish sharoitining o'zgarishi avtomobilning ish qobilyatining umumiy yomonlashishiga sabab bo'ladi.

Yeyilgan detallarning chegaraviy o'lchami deb ularning shunday qiymatiga aytiladiki, bunda iqtisodiy yoki texnologik ko'rsatkichlarning yo'l ko'yib bo'lmaydigan darajada pasayib ketishligi, nuqsonlarning va avariya xavfining ortishi sababli avtomobilni ishlatishda davom ettirish maqbul bo'lmay qoladi yoki avtomobilning ishlatishni iloji bo'lmay qoladi.

Dvigatel', shassi, o'rnatma yoki tirkalma qishloq xo'jalik mashinalarining ish organlariga energiya uzatish mexanizmlari uchun detallarning chegaraviy o'lchami ularning tez yeyilish ko'rsatkichi, emirilish tufayli avtomobil ishida avariya sodir bo'lishi yoki ishlamay qolishligi ehtimolligi bilan belgilanadi.

Ish organlarini bevosita boshqaradigan detal' va tutashmalarda chegaraviy o'lcham yer haydash, ekish, yanchish, tozalsh va hokazo ishlar sifatining yomonlashishi bilan harakterlanadi.


Mashinalarning ish protsesslarini bevosita boshqaruvchi detallarning chegaraviy o'lchamlari iqtisodiy ko'rsatkichlar – quvvat, ish unumining

kamayishi, yonilg'i hamda moy sarfining ortishi va hokazolarning chegaraviy kamayishi bilan belgilanadi.

Ammo detallarning chegaraviy o'lchamlarini belgilash ta'mirlash vaqtida ularni yaroqli-yaroqsizga ajratish uchun etarli faktor bo'la olmaydi. Detallarni chegaraviy yeyilishiga qarab emas, balki ta'mir qilmasdan yo'l qo'yiladigan yeyilishga qarab yaroqsizga chiqarish kerak. Bunday yeyilishning kattaligi

shunday hisob bilan belgilanadiki, bunda avtomobil ta'mirlashlararo davrda detallarni almashtirish zaruriyatisiz ishlay olsin, lekin bu davr oxirida detallarning yeyilishi chegaraviy qiymatga yaqin bo'lishi kerak.

1- Rasm. Yeyilishni tavsiflovchi egri chiziq.



Qo'zg'aluvchan tutashmalar ko'pchilik detallar yeyilishining o'sishi egri chiziq bo'yicha sodir bo'ladi. (1-rasm). Bu egri chiziqning birinchi uchastkasi tezlashgan boshlangich yeyilish davrini, ikkinchi uchastka – normal ish davrini (tabiiy yeyilish davrini), uchinchi uchastka – avariya yeyilish davrini tavsiflaydi.

Detallarning chegaraviy yeyilish to'g'ri chiziqli ikkinchi uchastkaning uchinchi uchastkaga o'tish joyida sodir bo'ladi.

Detallarning ta'mirsiz yo'l qo'yiladigan eyilishi I_D – egri chiziqdagi b nuqtaga mos keladi, bu nuqta chiziqning egilish nuqtasidan ta'mirlararo interval MI kattaligi qadar orqada bo'ladi.

Avtomobil detallarining yo'l qo'yiladigan va chegaraviy yeyilishini o'z vaqtida aniqlash uchun qismlarga ajratmasdan diagnos quyish uslublarini ko'llash zarur.

Tekshirishning vazifasiga qarab diagnos quyishning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

1. Avtomobil (mexanizim) ning ish qobiliyatini aniqlash. Diagnos quyishning bu turida avtomobil ishining texnika – iqtisodiy ko'rsatkichlari

(dvigatel' quvvati, yonilg'ining solishtirma sarfi, transmissiyaning f.i.k. va boshqalar) aniklanadi.

2. Avtomobil (mexanizim) ning buzuvchiligi aniqlash.

3. Avtomobil (mexanizim) ning resursini aniqlash.

Bundan buyon ishlatish imkoniyati borligini yoki ta'mir qilish zarurligini aniqlash maqsadida avtomobil, alohida uzellar va agregatlarning qoldiq resursi o'ydinlashtiriladi.

8.2. Transport vositalarini ta'mirlashda ishlab chiqarish jarayoni.

Avtomobillarni ta'mirlashda ishlab chiqarish protsessi – ishlarning shunday majmuasiki, bu ishlar bajarilgandan keyin eyilgan avtomobil qo'shimcha materiallar va zapas qismlarning ishlatilishi natijasida normal ishlaydigan bo'ladi. Umumiy holda murakkab avtomobilni kapital ta'mirlashda ishlab chiqarish protsessi bir qancha texnologik protsesslardan iborat.

Texnologik protsess – detallar, uzellar, agregatlar va umuman avtomobilni ta'mirlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish protsessining bir qismi. Masalan, yig'ish texnologik protsessi ishlab chiqarish protsessining detallarini gruppalariga, uzal va agregatlarga ketma-ket biriktirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qismidan iborat; detalni ta'mirlash texnologik protsessi detal' holatini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish protsessining bir qismidan iborat.

Texnologik operatsiya – ayni bir mahsulotni tayyorlashda bitta ish o'rnida bajariladigan texnologik protsessning tug'allangan qismi. Masalan, detallar va uzellarni tupikaviy yuvish mashinasida yuvish texnologik protsessi quyidagi operatsiyalardan iborat: detallarni aravachaga taxlash, aravachani yuvish mashinasiga o'rnatish, mashinani ishga tushirish va detallar yuvilgach, uni to'xtatish, aravachani g'ildiratib chiqarish va detallarni tegishli ish o'rinlariga tashish.

Texnologik protsessda bajariladigan operatsiyalarning ma'lum tartibdagi bayoni **t e x n o l o g i k k a r t a** deb ataladi. Unda operatsiyalarning

bajarishning ratsional tartibi, texnikaviy shartlar, ish rejimlari, jihozlar, asboblar, materiallar, nazorat qilish usullari, ishni bajarish vaqti, ishchining razryadi va boshqa ma`lumotlar ko`rsatilgan bo`ladi. Texnologik karta iqtisodiy hisoblashlar, ishlab chiqarishni tashkil etish va planlashtirish uchun asos bo`ladi. Kartadagi ma`lumotlar jihoz, asbob, moslamalarni loyihalashga yoki tanlashga, ish hajmi va ijrochilar sonini hisoblashga, jihozlarni joy-joyiga qo'yishga, alohida ish o'rnida ham, bo'lim va tsexlarda ham bajarilgan ishlarning sifatini kontrol qilib turishga imkon beradi.

Ta`mirlash ishlarida texnologik hujjatlarning yagona sistemasi (ESTD) tomonidan kartalarning ma`lum formalari belgilangan: texnologik protsessning operatsion kartalari, texnikaviy kontrol vedomostlari, yig'ish va qismlarga ajratish moslamalari vedomosti, jihozlarning yigma vedomosti, komplektlash kartalari va h. k.

Qishloq xo'jaligida mashinalarni remont qilish texnologik protsesslarini bajarish uchun **t i p a v o y t e x n o l o g i y a** asosiy hujjat hisoblanadi.

8.3. Transport vositalarini ta`mirlash korxonalari haqida tushuncha.

Avtomobil transporti korxonalarini vazifasiga qarab ikki guruxga bo'lish mumkin.

1. Harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish avtotransport korxonasi.
2. Avtomobil va agregatlarni mukammal ta`mirlash korxonasi.

Haraktlanuvchi tarkibdan foydalanish avtotransport korxonasi: yuk va yo'lovchi tashish, TXK, ta`mirlash va harakatlanuvchi tarkibni saqlash ishlari bilan shug'ullandi. Bu korxonalarda turli miqdordagi avtomobillar bo'ladi: avtomobili 50 dan 1000 tagacha, avtobuslar 100 dan 500 tagacha, engil avtomobillar 200 dan 1000 tagacha va undan ortiq. Ixtiyorida 600 dan 1500 tagacha va undan ortik avtomobillari bo'lgan avtokombinatlar soni muntazam ortib bormokda. Avtokombinatlar odatda, bosh (bazaviy) korxonalardan tashkil topgan bo'lib, tarkibida bir necha shu'ba (filial) lari bo'ladi. Ular avtomobillardan foydalaniladigan xududlarga yaqin joylashib, ixtiyorida 50 dan 300 tagacha

avtomobili bo'ladi. Bosh avtokorxonada odatda harakatlanuvchi tarkibni saqlashdan tashqari, ularga TXK va T ishlari bajariladi. SHuningdek bu erda filialdagi avtomobillarga ham murakkab va katta ish hajmiga ega bo'lgan TXK va T ishlarini bajarish mumkin. Odatda, filiallarda KTXK, 1-TXK va mayda JT hamda avtomobillarni saqlash vazifalari bajariladi. So'ngi yillarda tashkil etilgan ishlab chiqarish avtotransport birlashmalari (PATO lar)samarali ishlab kelmokda. Bu ishlab chiqarish birlashmalari, harakatlanuvchi tarkidan foydalanuvchi xo'jalik hisobidagi avtotransport korxonasi bo'lib, shaharda va viloyatdagi korxonalarni birlashtirish hisobiga o'z vazifasini bajaradi. Odatda u bir muncha ilg'or va texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan korxona hamda hozirgi paytda, bosh korxonaga bo'ysunadigan, xo'jalik hisobidagi korxonadan iborat. PATO ni aniq ishlash sharoitini hisobga olganda xo'jalik chegarasi har xildir. Harakatlanuvchi tarkib toifasiga qarab PATO lar 600 dan 3000 ta va undan ortiq avtomobillari bo'lgan, yuk avtomobillari, avtobus va taksomotorli ko'rinishlarga ega. Avtomobillarga TXK va JT ishlarini bajaruvchi korxona turli korxonalar, tashkilotlar va shaxsiy avtomobillarga TXK va (S) T ishlarini bajaradi.

Bunday korxonalar qatoriga markazlashgan tartibda TXK bazasi(MTXKB-BTSTO): TXK korxonasi(ATXKK-STOA), avtomobil saroylari, avtosayyohlar uchun mehmonxonalar, motel, kemping va AYOQSH kiradi. MTXKB lar turli avtokorxonalar avtomobillarga murakkab TXK va JT ishlarini bajaradi. Ba'zi bir MTXKB larga birlashtirilgan avtokorxonalarning avtomobildan yechib olingan alohida bo'g'in, agregat va mexanizimlarini sozlaydi. Bazaning kattaligi uning ro'yxatida bo'lgan avtomobillarning soni bilan o'lchanadi.

ATXKK – shaxsiy avtomobillarga, kichik korxona va tashkilotlar avtomobillarga, davlat va jamoa xo'jaligi avtomobillariga TXK va T ishlarini bajaradi. Ya'ni; u avtomobillarni ehtiyot qism va foydalanish ashyolari bilan ta'minlabgina qolmay, balki avtomobillarga to'la hajmdagi KTXK, 1-TXK, 2-TXK va JT ishlarini ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatiladigan avtomobillar toifasiga qarab ATXKK lar engil va aralash turdagi avtomobillar uchun, hududiy belgilarga qarab, shahardagi-rayondagi va yo'l bo'yidagi ko'rinishlarga ega. Avtomobillarga TXK va T ishlarini ko'rsatish postlarini soniga qarab ATXKK ishlab chiqarish

quvvati aniqlanadi va postlar soni 5 dan 50 ta gacha hamda undan ortiq ham bo'lishi mumkin. Saqlash saroy ko'rinishidagi korxonalar avtomobillarni saqlab berish uchun xizmat qiladi va ayrim hollarda, bunday korxonalar avtomobillarga TXK va ularni foydalanish ashyolari bilan ta'minlash vazifasini bajaradi. Umumiy tartibda foydalaniladigan saqlash joyi saroylar shaxsiy avtomobillarni saqlab berish uchun xizmat qiladi. Bunday saqlash joylari uyda, ba'zi, rayonlarda joylashishi mumkin. Ular maxsus binolar ko'rinishida ko'riladi yoki ochiq maydonlarda avtomobillarni vaqtincha saqlashga mo'ljallanadi.

AYOQSH – avtomobillarni foydalanish ashyolari bilan ta'minlovchi korxona hisoblanadi. Odatda, AYOQSH avtomobil yonilg'isi turi: bezin, dizel' va gaz ballon yonilg'ilarini berishga moslashib, shahar va yo'l bo'yida joylashgan bo'ladi. AYOQSH quvvati kuniga xizmat ko'rsatiladigan avtomobillar miqdori bilan o'lchanib, shahardagi shaxobcha 500 – 2000 gacha va yo'l yoqasidagi shaxobcha 500-1000 tagacha avtomobillarga xizmat ko'rsatishi mumkin.

Avtomobil va agregatlarni mukammal ta'mirlash korxonasi

Bir yoki bir necha idoralarning to'la komplektli avtomobilarga, bo'g'in, agregat va asboblarga mukammal ta'mirlash ishlarini bajaradi. Bunday vazifalarni bajaruvchi avtokorxonalar qatoriga: avtosozlash va agregat sozlash korxonalari, avtosozlash ustaxonalari, shina ta'mirlash ustaxonasi yoki korxonasi, akkumulyatorni ta'mirlash hamda zaryadlash shaxobchasi va boshqalar kiradi. ATK lar avtomobil yoki agregatlar turi bo'yicha, avtoustaxonalari esa avtomobil agregati va tizimlari bo'yicha ixtisoslashadi.

Tayanch iboralar:

Ta'mirlash, texnologik operatsiya, texnologik karta, tipavoy texnologiya, detallarni chegaraviy o'lchami, ishlab chiqarish protsessi, texnologik protsess, harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish ATK si, avtokombinat, ishlab chiqarish avtotransport birlashmalari, markazlashgan tartibdagi texnikaviy xizmat ko'rsatish bazasi, avtomobillarga yoqilg'i quyish shaxobchasi.

Nazorat savollari:

1. Transport vositalarini ta`mirlash, sozlash va yaroqli – yaroqsizga ajratish deganda nimani tushunasiz?
2. Transport vositalarini ta`mirlashda ishlab chiqarish jarayonini tushuntirib bering.
3. Texnologik protsess va texnologik operatsiya nima?
4. Texnologik karta va tipavoy texnologiya nima?
5. Transport vositalarini ta`mirlash korxonalari haqida tushuncha bering.

**Mavzu - 9. TRANSPORT VOSITALARIDA YUK VA YO'LOVCHI
TASHISH TO'G'RIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR VA
AVTOTRANSPORT KORXONASINING
TEXNIK – IQTISODIY KO'RSATKICHLARI. (2-soat)**

Reja:

9.1. Avtomobillarda yuk va yo'lovchilar tashish asoslari fanining maqsadi va vazifasi.

9.2. Transport vositalari guruhlari.

9.3. Avtotransport korxonasining texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Adabiyotlar:

1. B.A. Xo'jaev «Avtomobillarda yuk va passajirlarni tashish asoslari» fani bo'yicha ma'ruzalar matni. Toshkent- 2001 y.
2. V.S. Kalisskiy, A.I. Manzon, G.E. Nagula «Avtomobil'» T.:O'zbekiston, 1978 y.

9.1. Avtomobillarda yuk va yo'lovchilar tashish asoslari fanining maqsadi va vazifasi.

Yo'lovchi tashuvchi transportlarning o'sish darajasini belgilashda ularni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini e'tiborga olibgina qolmay, balki masalaning ijtimoiy tomonlariga ham katta e'tibor berish lozim. Yo'lovchilar tashuvchi transportlarning muhim vazifasi – kishilarning o'zaro aloqasini kengaytirish, tajriba almashish, ularning madaniy saviyasini oshirishga xizmat qilishdan iborat bo'lishi kerak. Qishloq aholilarini shaharlar bilan birlashtiruvchi yo'lovchi transporti ishini keng yo'lga qo'yish shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutlarni kamaytirishning katta omili hisoblanadi.

Yo'lovchilar transportining asosiy vazifalaridan biri, kishilarni o'z vaqtida ish joyiga va ishdan uylariga eltib quyish, ish kuni davomida ishchi va xizmatchilarni korxonalar o'rtasida tashishdan iboratdir. Bundan tashqari, yo'lovchilar transporti aholining bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan

ko'pdan-ko'p yumushlarini bajarishlarida, ularni dam olish uylari va sanatoriyalarga qisqa muddatichida eltib qo'yishda katta ahamiyatga egadir. So'nggi yillarda turli transport vositalari yordamida mamlakatimiz bo'ylab va chet el davlatlariga sayohat qilish va tijorat ishlarini bajarish odamlar orasida keng tarqaldi.

Xalqaro aloqalarni, jumladan tovar almashtirishni kengaytirish va uni mustahkamlash ishida ham transportning roli katta. Xalqaro savdo, sayyohlik va boshqa aloqalarning rivojlanishi, fan va texnika, madaniyat hamda sport sohalaridagi munosabatlarning yuksalishi TV va aloqa yo'llarining rivojlanganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Bulardan tashqari aholini sanoat va oziq ovqat mollari bilan o'z vaqtida ta'minlash transportning asosiy vazifalaridan biridir.

Avtomobil transportining yuqorida keltirilgan vazifalaridan kelib chiqqan holda TV dan foydalanish yo'nalishi bakalavrlarni tayyorlashda fanning maqsadi talabalarga xalq xo'jaligi soqalari va kishilarning ishlab chiqarishlari bilan bog'liq moddiy buyumlarni zarur joylarga belgilangan vaqtda va sifatli darajada etkazib berish hamda aholining yo'lovchilar tashish transportiga bo'lgan ehtiyojini muntazam qondirishni tashkil etish, transporti vositalaridan samarali fodalanish va ularni to'g'ri tanlash ko'nikmalrini o'rgatishdan iboratdir.

9.2. Transport vositalari guruhlari.

Transport vositalari (TV) deyilganda yuk va yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan ishlab chiqarish jihozlari tushuniladi.

Avtomobil transport vositalari ikki guruhga bo'linadi:

- a) o'zi yurar, ya'ni uni harakatga keltiruvchi o'z dvigateli bor avtomobillar va tyagachlar;
- b) o'ziyurmas ya'ni avtomobillar va tyagachlar ulanmasida ishlovchi tirkama (pritsep) va yarim tirkamalar .

Avtomobillarni asosiy ekpluatatsion xususiyatlariga quyidagilar kiradi: dinamikligi, yonilg'i iqtisodligi , boshqaruvchanligi, turg'unligi, o'tagonligi,

harakat ravonligi, sig'dira olishligi, mustahkamliligi, chidamlilig, texnik xizmat ko'rsatish va ta'minlashga mosligi, ortish-tushirish ishlarini bajarishga mosligi .

Avtomobilning dinamikligi deyiganda ma'lum yo'l sharoitlarida yuk va yo'lovchilarni iloji boricha maksimal o'rtacha tezlik bilan harakatlana olishi tushiniladi. Avtomobilning dinamikligi qanchalik yaxshi bo'lsa, tashish uchun zarur vaqt shunchalik kam bo'ladi, binobarin avtomobilning unumdorligi yuqori bo'ladi, ya'ni ma'lum vaqt birligida aniq masofaga yuk yoki yo'lovchilarni ko'p miqdorda tashiy oladi.

Avtomobilning dinamikligi uning tortish va tormozlash xususiyatlariga bog'liqdir.

Avtomobilning yonilg'i iqtisodligi deyilganda, uning harakati uchun yoqilayotgan yonilg'i quvvatidan oqilona foydalanish tushuniladi.

Yonilg'i iqtisodligi nixoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan ekpluatatsion xususiyatdir, chunki yonilg'i xarajati umumtashish tannarxini eng katta qismini tashkil etadi. Qanchalik yonilg'i kam sarflansa, avtomobilning ekpluatatsiya xarajati shunchalik arzon bo'ladi.

Avtomobilning sig'dira olish xususiyati unga bir vaqtda tashishga mo'ljallangan yuklar miqdori yoki yo'lovchilar soni tushuniladi. Yuk avtomobillari sig'dira olish xususiyati uning ko'tara olish qobiliyati va kuzovining ichki hajm o'lchovlari bilan bog'liq. Yo'lovchilar tashuvchi avtomobillar sig'dira olishi deyilganda bir vaqtda harakatlanuvchi yo'lovchilar soni tushuniladi.

Avtomobilning yuk ortish-tushirish (yoki yo'lovchilarni o'tkazish va tushirish) ga mosligi xususiyati deyilganda, bunday operatsiyalarni bajarishga kam mehnat va vaqt sarfi tushuniladi.

Avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil etishlikdan nihoyaviy maqsad TV unumdorligining oshirish va tashish tannarxini arzonlashtirish bo'lib, ular birgalikda avtomobillarda yuk va yo'lovchilar tashish fanining asosi hisoblanadi. Bunday maqsadga erishishlik uchun quydagi masalalarni samarali yechimlarga erishish lozim:

- avtomobilning texnik harakat tezligini oshirish;
- yonilg'i nisbiy sarfini kamaytirish;

- avtomobil transporti harakat xavfsizligini ta'minlash;
- avtomobil haydovchisi va yuruvchi yo'lovchilarga komfort hamda eng qulay ish sharoitini ta'minlash.

9.3. Avtotransport korxonasining texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Avtotransport korxonasining ishiga umumiy va har bir avtomobilning ishiga alohida ravishda baho berishda hamda ayrim avtomobillarning, hatto ayrim avtotransport korxonalarining ishini taqqoslab ko'rishda bir qancha ko'rsatkichlarga, chunonchi, haraktlanuvchi sostavdan qanchalik samarali foydalanganlikni, uning texnik jihatdan qanchalik tayyorligi va yuk tashish ishlarining naqadar aniq va to'g'ri tashkil etilganligini ta'riflovchi ko'rsatkichlarga asoslanadi. Haraktlanuvchi tarkibning texnik jihatdan tayyorlik koeffitsienti, uni yo'lga chiqarish koeffitsienti, yo'lda ishlash davomiligi, texnik va ekspluatatsiya tezliklari, yo'l bosish masofasi va undan foydalanish koeffitsienti, tashilgan yukning tonna hisobidagi miqdori va tonna-kilometr hisobida bajarilgan ish anashunday ko'rsatkichlardir.

Haraktlanuvchi tarkibning yuk tashishga taxtligini ta'riflovchi ko'rsatkich - **t e x n i k j i h a t d a n t a y y o r l i k k o e f f i t s e n t i d i r**. Bu koeffitsentni topish uchun texnik jihatdan soz avtomobillar soni avtotransport korxonasidagi ro'yxatga kirgan avtomobilllar soniga bo'lish kerak, ya'ni:

$$\alpha_m = \frac{D_{\text{эу}}}{D_{\text{эу}} + D_{\text{пу}}};$$

bu erda: $D_{\text{эу}}$ - tsikl davomida ishlatish kunlari;

$D_{\text{пу}}$ - tsikl davomida ta'mirlash kunlari.

Haraktlanuvchi tarkibning yo'lga chiqarilishi **ch i q a r i s h k o e f f i t s e n t i** bilan ta'riflanadi. Chiqarish koeffitsienti avtomobillarning amalda ishlagan kunlari sonining avtotransport korxonasining ish kunlari soniga nisbati bilan belgilanadi, ya'ni:

$$\alpha_{\epsilon} = \frac{D_{pl} \cdot \alpha_m}{D_k};$$

bu erda: D_{pl} - avtomobillarning liniyadagi ish kunlari;

D_k - kalendar kunlar soni.

Chiqarish koeffitsenti korxonaning ish rejimiga, ya'ni haftaning uzlukli yoki uzluksiz hafta bo'lishiga, avtomobillarning texnik ahvoliga, yuk tashish marshrutlaridagi yo'llarning yaxshi-yomonligiga va transport ishlarining qanchalik aniq tashkil etilganligiga bog'liq.

Avtomobilning liniyada ishlagan muddati (davomliligi) avtotransport korxonasining ishiga baho berishda ancha muhim faktorlardan bo'lib hisoblanadi; bu muddat avtomobilning garjdan chiqqan paytidan to garjga qaytib kelgan paytigacha o'tgan vaqt bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkich avtotransport korxonasining ish rejimiga, yuk tashish ishining xarakteriga, shu bilan birga yuk ortiladigan va yuk tushiriladigan punktlarning ish vaqtiga hamda yuk tashiladigan masofaga bog'liq. Avtomobilning ikki va uch smena bo'lib ishlashini tashkil etish, liniyada shofyorlarni almashtirish, dam olish kunlarida asosiy shofyorni almashtirish yo'li bilan bu ko'rsatkichni oshirish mumkin.

T e x n i k t e z l i k deganda, avtomobilning harakat vaqtidagi o'rtacha tezligi tushuniladi. Avtomobilning chorraxada yo'lni davom ettirishga ruxsat berilishini kutib to'xtab turgan vaqti ham bu vaqtga qo'shilgan. Texnik tezlik avtomobilning kilometr hisobida bosgan yo'lining avtomobil harakatda bo'lgan vaqtga nisbati bilan belgilanadi.

$$V_T = \frac{L}{T}; \quad \text{km/soat}$$

bu erda: L - bosib o'tilgan kilometrlar soni;

T - soat hisobida yurilgan vaqt .

E k s p l u a t a t s i o n t e z l i k . Bu tezlikni aniqlaganda, texnik tezlikdan farqli o'laroq, avtomobilning naryadda bo'lgan vaqti ham hisobga

olinadi, bunga avtomobil yo'lda vaqtda texnik nuqsonlarni yo'qotishga sarflagan vaqt, yukni qabul qilganda va topshirganda hujjatlarni rasmiylashtirishga ketgan vaqt hamda yuk ortish va yuk tushirishda bekor turilgan vaqt ham qo'shiladi. ekspluatatsion tezlikni topish uchun avtomobilning kilometr hisobida bosgan yo'li naryadda soatlar hisobida bo'lgan vaqtiga bo'linadi.

$$V_{\Theta} = \frac{L}{T_{III}}; \text{ km/soat}$$

bu erda: L - bosib o'tilgan kilometrlar soni;

T_{ISH} - naryaddagi vaqt.

A v t o m o b i l n i n g b o s i b o ' t g a n y o ' l i - harakatlanuvchi tarkibning texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlaridan biridir. Avtomobilning bosib o'tgan yo'li necha kilometr yurganligi bilan ifodalanadi va avtomobilning marragacha yurishi, yuk bilan yurishi hamda yuksiz yurishidan iborat bo'ladi. Avtomobilning yuk bilan yurganigina samarali yurish hisoblanadi. Uning yuk tushiriladigan va yuk oriladigan punktlar orasida yurishi yuksiz yurish hisoblanadi. Marragacha yurish deganda, avtomobilning garajdan to yuk oriladigan punktgacha va yuk tushirilgan oxirgi punktdan to garajgacha yurib kelishi tushuniladi.

Avtomobil ishining yanada samaraliroq bo'lishida uning **b o s g a n y o ' l i d a n f o y d a l a n i s h k o e f f i t s e n t i** katta ahamiyatga ega . Bu koeffitsentni topish uchun avtomobilning yuk bilan bosgan yo'lini umumiy bosgan yo'liga bo'lish kerak:

$$\beta = \frac{L_{IOK}}{L_{YM}} ;$$

bu erda: L_{YUK} – yukli masofa;

L_{UM} – umumiy bosgan yo'l.

Yuk ko'taruvchanlikdan foydalanish koeffitsient i avtomobilning ish unumini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu koeffitsent haqiqatan tashilgan yuk og'irligini avtomobilning yuk ko'tara olish quvvatiga bo'lib topiladi, ya'ni:

$$\gamma = \frac{Q}{q_H}.$$

bu erda: Q - tashilgan yuk og'irligi;

q_H - yuk kutara olish quvvati.

Avtomobilga yuk ko'tara olish normasiga muvofiq yuk ortish yo'li bilan uning yuk ko'taruvchanligidan foydalanish koeffitsentini oshirish mumkin. Shu sababli yengil vaznli yuklarni tashiganda avtomobilning bortlarini balandroq qilish, yuklarni taxlaganda yuk platformasi maydonidan to'laroq foydalanish idishga joylangan yuklarni tashiganda esa belgilangan gabaritlardan chetga chiqmay, yuklarni bir necha qator qilib taxlash va yaxshilab bog'lash kerak.

Tayanch iboralar:

Yo'lovchi transportining vazifasi, transport vositalari, avtomobilning dinamikligi, yoqilg'i iqtisodligi, sig'ira olish xususiyati, texnik jihatdan tayyorgarlik, chiqarish koeffitsenti, avtomobilning liniyada ishlagan muddati, texnik tezlik, ekspluatatsion tezlik, yo'ldan foydalanish koeffitsenti, yuk ko'taruvchanligidan foydalanish koeffitsenti.

Nazorat savollari:

1. Avtomobillarda yuk va yo'lovchilar tashish asoslari fanining maqsidi va vazifasini tushuntiring.
2. Transport vositalari guruhlarini izohlang.
3. Avtotransport korxonasining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini izohlang.
4. Texnik jihatdan tayyorlik koeffisienti nima?
5. Chiqarish koeffisienti nima?
6. Texnik tezlik nima?
7. Ekspluatatsion tezlik nima?
8. Avtomobilning bosib o'tgan yo'li nima?
9. Yo'ldan foydalanish koeffisienti nima?
10. Yo'ldan foydalanish koeffisienti?

«MUTAXASSISLIKKA KIRISH» fani bo'yicha
baholash mezon i

O'quv dasturiga ko'ra 18 soat ma'ruza, 18 soat amaliy va 24 soat mustaqil ta'lim rejalashtirilgan.

№	Yo'nalish	Belgilangan reyting ballari						
		JB – 36		MT – 24		OB	YAB	Jami
		JB-1	JB-2	MT-1	MT-2			
1	MTVI	18	18	12	12	25	15	100

Joriy baholash (JB) – amaliy darslarda har bir mavzu asosida talabanning o'zlashtirishi bo'yicha baholanadi. Semestr davomida 1-kurs «Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash» yo'nalishidagi kunduzgi ta'lim talabalari 18 soat amaliy mashg'ulot mobaynida 9 ta amaliy mashg'ulot bajarishlari lozim.

a) talaba darsga kelmasa 0 ball qo'yiladi.

b) talaba darsga passiv qatnashsa va amaliy mashg'ulotni bajarmasa 0,25 ball qo'yiladi.

v) talaba amaliy mashg'ulotni bajarsa, biroq himoya qilmasa 1,9 ball qo'yiladi.

g) talaba mashg'ulotga faol qatnashib 1 ta amaliy mashg'ulotni bajarsa va himoya qilsa 3,75 ball qo'yiladi.

Mustaqil ta'limda (MT) – talaba o'ziga berilgan topshiriqni yoki uy vazifasini mustaqil tarzda bajarishi lozim. Mustaqil ta'lim «referat» shaklida bo'lib, o'qituvchi tomonidan ishchi dasturdagi barcha mavzular asosida tuzilgan referat mavzusi bo'yicha o'tkaziladi.

a) talaba referat yozmasa va himoyalamas 0 ball qo'yiladi.

b) talaba referat yozsa, biroq himoya qilmasa 12 ball qo'yiladi.

v) talaba mustaqil ta'limda berilgan topshiriqni «referat» shaklida yozsa va himoyalasa 24 ball qo'yiladi.

Oraliq baholash (OB) – ma'ruza mashg'uloti bo'limi yoki qismi bo'yicha baholanadi. Talabanning fanni o'zlashtirib borishi oraliq baholashda quyidagi tartibda baholanib boriladi:

a) talaba darsga qatnashmasa ya'ni, kelmasa 0 ball;

b) talaba darsga passiv qatnashsa biroq, o'tilgan mavzularni konspektlashtirib bormasa 0,25 ball;

v) talaba har bir juft ma'ruza mashg'ulotiga faol qatnashib, o'tilgan mavzularni konspektlashtirib bors 0,5 ball;

g) OB kafedrada ishchi dastur asosida tuzilgan savollar bo'yicha o'tkaziladi. OB yozma shaklda bo'lib, har bir variantda 4 ta savol keltirilgan va 1 ta to'g'ri javob 5,1 ball bilan baholanadi.

Yakuniy baholash (YAB) – yozma shaklda, ishchi dasturdagi barcha mavzular asosida tuzilgan savollar bo'yicha o'tkaziladi.

a) Har bir variantda 5 tadan savol bo'lib, 1 ta to'g'ri javob «3» ball bilan baholanadi.

Talaba JB, MT, OB, va YAB larning har biridan 55% dan ortiq ball yig'ishi shart.

MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHGA OID TOPSHIRIQLAR.

t/r	Mustaqil ishlar nomi	Soat
1	Bandi bo'yicha: 5140900–“Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash” yo'nalishi bo'yicha bakalavr pedagoglarning ish faoliyati.	2
2	Bandi bo'yicha: Gumanitar va ijtimoiy iqtisodiy fanlar hamda tabiiy ilmiy fanlar orasidagi bog'liqlar.	2
3	Bandi bo'yicha: Umumkasbiy fanlarni o'rgatish mohiyati.	2
4	Bandi bo'yicha: Ixtisoslik va umumkasbiy fanlarni o'zaro uzviy bog'liqligini tahlili.	2
5	Bandi bo'yicha: Nazorat turlari tasnifi va ularni o'tkazish bosqichlari.	2
6	Bandi bo'yicha: Ixtisoslik fanlari bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqarish.	2
7	Bandi bo'yicha: Transport vositalaridan foydalanishda ishonchlilikni ta'minlash. Texnik xizmat me'yorlari va ularni to'g'rilash.	4
8	Bandi bo'yicha: Transport vositalari texnikaviy holatining ko'rsatkichlari hamda mexanizmlarni ta'mirlash va ishlashini oldindan aytish.	4
9	Bandi bo'yicha: Transport vositalari tasnifi va ish sharoitlari.	4
	JAMI:	24